

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

«Tasdiqlayman»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, dotsent
_____ F.Axrоров
«____» _____ 2014 yil

5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» ta'lim yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Lalmikor g'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va
mahsulot tannarxining tahlili”
(Qo'shrobd tuman fermer xo'jaliklari misolida)**

Bajaruvchi: «Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi,
IV bosqich talabasi

Tog'ayev Jasur

Ilmiy rahbar, dotsent

T.Raxmonov

Ish kafedrada muhokama
qilinib, №__ bayonnoma
bilan himoyaga ruxsat etildi.

Kafedra mudiri, i.f.d.,
dotsent _____ A.I.Alikulov
«____» _____ 2014 yil

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
2. FERMER XO'JALIKLARIDA RESURLAR SALOHİYATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	17
2.1.Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi.....	17
2.2.Mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi.....	23
2.3.Moddiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi.....	27
3. LALMIKOR G'ALLACHILIKDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI.....	31
3.1.Xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va hisobning vazifalari	31
3.2.G'alla ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki, sintetik va analitik hisobi....	35
4. LALMIKOR G'ALLACHILIKDA MAHSULOT TANNARXINING TAHLILI.....	46
4.1. Tannarx tushunchasi va uni hisoblash usullari.....	46
4.2. Lalmi g'alla ishlab chiqarish xarajatlarining xarajat moddalari bo'yicha taqqoslama tahlili	51
4.3. Fermer xo'jaliklarida 1 s. g'alla tannarxining omilli tahlili.....	54
5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.....	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	66

KIRISH

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizasiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Jumladan, jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ko'lami kengayotganiga qaramay, mamlakatni modernizasiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miqyosda amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda fermerlarimiz mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida ilk bor 7 million 610 ming tonnadan ziyod g'alla xirmonini ko'tardi. Hosildorlik gektariga o'rtacha 55 sentnerni tashkil qildi, ilg'or fermer xo'jaliklari bu ko'rsatkich 60-75 sentnerga yetdi. Mamlakatimiz Prezidentining ana shu munosabat bilan O'zbekiston g'allakorlariga yo'llagan tabrigida yuksak xirmonga o'z hissalarini qo'shgan viloyat fermer xo'jaliklarini, jumladan, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi "Hosil", "Shakar ota" kabi fermer xo'jaliklarida gektaridan 100 sentner va undan oshirib hosil olingani ta'kidlab o'tdilar. Bu muvaffaqiyat zahirida Samarqand viloyati g'allakorlarining ham munosib hissalarini bor. Samarqand viloyati fermerlari o'tgan yilda mamlakat xirmoniga 701399 tonnadan ortiq don yetkazib berishdi. Viloyatimiz bo'yicha sug'oriladigan maydonlarda o'rtacha hosildorlik 53,5 sentnerni, lalmi maydonlarda esa 18 sentnerni tashkil etdi.

Bu erishilgan yutuqlar yurtimiz g'allachiligi madaniyati yuksalib borayotganligini ko'rsatadi. Prezidentimiz I.Karimov «...O'zbekistonimizning g'alla mustaqilligiga erishgani va so'nggi yillarda yurtimizda don tayyorlash hajmi muntazam o'sib borayotgani, xalq xo'jaligi va aholimizning ehtiyojlarini to'liq ta'minlash bilan birga, yetishtirgan g'allamizni eksport qilishga muvaffaq bo'lganimizning o'z nafaqat iqtisodiy, kerak bo'lsa, siyosiy-strategik ahamiyat kasb etib, ko'nglimizni iftixorga to'ldirmoqda va ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda». Prezidentimiz I.Karimov rahbarligida aholini o'zimizda yetishtirilgan don va don mahsulotlari

bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2008 yil 20 oktyabrda qabul qilingan «Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida paxta ekiladigan dalalarni kamaytirish hisobidan boshhoqli don ekinlari uchun mo'ljallangan maydonlar qariyb 50 ming gektarga kengaytirildi. O'tgan yilda amalga oshirilgan bu kabi o'zgarish va islohotlar joriy va kelgusi yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligining oshishi hamda uning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga ishonchli zamin yaratdi.

Yuqorida erishilgan yutuqlarga qaramasdan, fermer xo'jaliklarida g'alla hosildorligini oshirish, har gektar ekin maydonidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu imkoniyatlardan to'laroq foydalanishda fermer xo'jaliklarida qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan xo'jalikning raqobatdoshligini oshirish, olinadigan hosilni to'liq daromadga olish va sara donni sotish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni buxgalteriya hisobida o'z vaqtida aks ettirib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiyotimizdagi etakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma'quldir. Buning uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari to'g'risida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirish uchun mahalliy xom-ashyo va materiallardan foydalanish darajasini oshirish, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlarni konservasiya qilish, materiallar sarfi me'yorlarini pasaytirish, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, ma'muriy boshqaruv xodimlari sonini qisqartirish kabi asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu muammolar mavjudligi, ularni qishloq xo'jalik korxonalari misolida hal etish yo'llarini ko'rib chiqish maqsadida bitiruv malakaviy ishi mavzusi

tanlandi. Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklari, jumladan «Asad» fermer xo'jaligi bo'lib, maqsadga erishish uchun uni oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Fermer xo'jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish;

- Lalmikor g'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishning hozirgi ahvolini o'rganish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

- Mahsulot tannarxini hozirgi ahvoli va uni hisoblash usullarini o'rganish;

- Lalmikor g'allachilikda mahsulot tannarxini dinamik va omilli tahlil qilish va shu asosda tannarxni pasaytirish bo'yicha takliflar berish.

Ushbu vazifalarni hal etishda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida ishlab chiqarish xarajatlari elementlari, mahsulot tannarxini aniqlash usullari ko'rib chiqilib, aniq materiallar asosida mahsulot tannarxini pasaytirish va foyda hajmini ko'paytirish bo'yicha takliflar berildi.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri yuritish bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlilini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish xarajatlar hisobi va tahlilini to'g'ri tashkil etilishi va o'z vaqtida amalga oshirilishi unumsiz xarajatlarni oldini olishni va xarajatlarni me'yorda bo'lishini nazorat qilishni ta'minlaydi. Natijada, samarasiz xarajatlar kamayib, mahsulot tannarxi pasayadi, mahsulot sotishdan olinadigan foyda ko'payib, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Shu jihatdan olganda, fermer xo'jaliklarida asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan biri bo'lgan, g'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash va tahlil qilish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda va ishlovchilarni moddiy manfaatdorligini yanada oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirishda xarajatlar hisobi va tahlili iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilib, mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligi, jumladan, g'alla yetishtirishni rivojlantirish, g'alla ekini xarajatlari hisobi va xarajatlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar, mahsulot tannarxini hisoblash bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlar, iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar mavjud bo'lib, ulardan bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanildi.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonun 24 moddadan iborat bo'lib, unda buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari (2-modda), buxgalteriya hisobi subyektlari (3-modda), buxgalteriya hisobi ob'yektlari (4-modda), buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish (5-modda), buxgalteriya hisobini tashkil etish (7-modda), boshlangich hisob xujjatlari (9-

modda), buxgalteriya hisobi registrlari (10-modda), daromadlar va xarajatlarni hisobga olish (13-modda), xususiy kapitalni hisobga olish (14-modda), moliyaviy hisobot (16-modda), moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi (19-modda) kabilar alohida moddalarda belgilab berilgan. Qonunning 13 – moddasi «Daromadlar va xarajatlarni hisob olish» deb atalib, bunda daromadlar va xarajatlar, to'langan vaqti va pul kelib tushgan sanadan qat'i nazar, qaysi davri taalluqli bo'lsa, o'sha hisobot davrida aks ettiriladi, deb yoritilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrirda). Fermer xo'jaligi to'g'risida. 26.08.2004.

Ushbu Qonun 6 bo'lim, 36 moddadan iborat. Fermer xo'jaligini tashkil etish hamda tugatish tartibi bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3-moddasida «Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir» deb ta'rif berilgan. Shuningdek qonunda fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari (5-modda), fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi (6-modda), fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish (7-modda), fermer xo'jaligining ustavi (8-modda), fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish tartibi (11-modda), qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) a'zolari tomonidan fermer xo'jaligini tashkil etish xususiyatlari (12-modda), yerdan foydalanish (13-modda), yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq (14-modda), suvdan foydalanish (15-modda), fermer xo'jaligining huquqlari (16-modda), fermer xo'jaligining majburiyatlari (17-modda), fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari (20-modda), fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyati (22-modda), mahsulotni fermer xo'jaligi tomonidan realizasiya qilish tartibi (24-modda), fermer xo'jaligini kreditlash va sug'urtalash (26-modda), fermer xo'jaliklarini davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash (29-modda),

fermer xo'jaligini tugatish asoslari (32-modda) kabilar alohida moddalarda belgilab berilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. №54-son.

Mazkur Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu nizomni qabul qilinishi korxonalar daromadlari va xarajatlarini aniq belgilangan guruhlariga ajratib hisobga olish hamda moliyaviy natijani shakllantirish tartibini belgilab berdi. Jumladan, xarajatlarni qaysilari mahsulot tannarxiga kiritiladi, qaysilari davr xarajatlariga olib boriladi. Bu mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu nizomda moliyaviy natijalarni besh ko'rsatkichi belgilangan bo'lib, ularning har birini ta'rif va aniqlashni hisob – kitobi berilib, bu xalqaro andozalarga mos keladi.

4. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. -T.: O'zbekiston, 2014. -34 b.

Ushbu asarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi yoritilgan. Unda mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizasiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan dasturlarni bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar

qilinishi tufayli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi qayd etilgan.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,0 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,8 foizga oshganligi aytib o'tilgan. Shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlanib, eksport hajmi sezilarli ravishda o'sganligi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib borayotganligi, 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 foizdan iborat bo'lganligi, tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etganligi, qimmatbaho metallar narxining keskin pasayganiga qaramasdan, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasi o'tgan yil davomida 2 foizga ko'payganligi ta'kidlangan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida hozirgi kunda 80 mingdan ortiq, shu jumladan 18 mingdan ortiq ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013-yilda dehqon va fermerlarning fidokorona mehnati bilan 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot, 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetishtirildi.

5. Abdukarimov B.A., Bektemirov A.B., Pardayev M.Q., Salimov Sh.S., Shavqiyev E.Sh., Abdukarimov F.B. Korxona iqtisodiyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 368 b.

Mazkur darslikda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar iqtisodiy faoliyatining tashkil etilishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Darslik 12 bobdan iborat bo'lib, ularda korxonalarning xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida tashkil etish va faoliyat yuritish bilan bog'liq tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy masalalar bayon etilgan. Darslikda korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari holatini baholash usullarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, darslikning VI bobi "Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi" (146-168 betlar), X bob "Ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik" (261-289 betlar) deb nomlanib, ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari, ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy tasnifi, xarajatlar tushunchasi hamda samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlari berilgan. Biz bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda boblarda keltirilgan tushuncha va fikrlardan foydalandik.

6. Alikulov A.I., U.T.Eshmuradov, Qurbonov I., Ibragimov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. – Samarqand: N-Doba, 2009. – 247 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning xususiyatlari, shuningdek fermer xo'jaliklarida hisob va hisobotni yuritishning tamoyillari, shakllari, analitik, sintetik hisobi ko'rsatib o'tilgan. Qo'llanma o'zida 16 mavzu va ulargi tegishli ilovalarni qamrab olib, 11 mavzu fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini aniqlash xususiyatlariga bag'ishlangan.

Umuman olganda, ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarida hisob yuritish tartibi, o'simlikchilikda mahsulot tannarxini aniqlash, hisob va hisobotlarda aks ettirish hamda ular hisobini takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

7. Alikulov A.I., Eshmuradov U.T. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxi va uning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati /Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, I-qism. – Samarqand: N-Doba, 2013. -B. 137-140.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalar amalga oshirilayotgan sharoitda mahsulot tannarxi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki, resurslardan foydalanish samaradorligi va mulkchilikning barcha shakllarida korxonalarning faoliyatini baholash chog'ida mahsulotning tannarxi, uning tarkibining o'zgarishi qanday talqin qilinishidan qat'iy nazar, muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tannarx kategoriyasini mavjud manbalari atroflicha tahlil qilinib, unga mualliflar tomonidan ta'rif berilgan.

8. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jalik yerlaridan to'liq va samarali foydalanish istiqbollari // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№7. –B. 35-36.

Muallif bugungi kunda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer maydonlarining holati to'g'risida fikr yuritib, qishloq xo'jalik, ayniqsa, sug'oriladigan maydonlarning qisqarib borishi ulardan to'liq va samarali foydalanishni talab etadi.

Muallif sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish yerlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning ko'payishiga, aholining shu mahsulotlarga bo'lgan talabining to'liq qondirilishiga va bu orqali farovon hayot kechirish darajasi yuksalishi ta'minlanadi, deb ta'kidlaydi.

9. Do'smurotov R.D., Mengliqulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. - 392 b.

Ushbu o'quv qo'llanma 10 ta bobdan iborat bo'lib, uning 7-bobi "Asosiy ishlab chiqarish jarayoni hisobi va mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiyalash" (161-226 betlar) deb nomlanib, dehqonchilik va

chorvachilikning barcha tarmoqlarida tannarxni aniqlash usullari aniq ko'rsatilib o'tilgan va biz bitiruv malakaviy ishning asosiy qismini yoritishda ushbu bobdagi fikrlardan foydalandik. Bundan tashqari o'quv qo'llanmada xo'jalik hisobi, uning turlari, buxgalteriya hisobining mohiyati, maqsadi va vazifalari, axborotdan foydalanuvchilarning har xil toifalari, buxgalteriya hisobining predmeti va metodi, balansning mohiyati va tuzilishi bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda yoritilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobining schyotlari va ikki yoqlama yozuv, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, analitik va sintetik hisobning xususiyatlari tushunarli va batafsil bayon qilingan.

10. Dehqonchilik madaniyati – fermerlar majburiyati (fermerlar uchun tavsiyalar) // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№6. –B. 10-13.

Mazkur tavsiyada dehqonchilik tadbirlari va yumushlarini belgilab qo'yilgan tartib va talablarga mos ravishda bajarish yoki boshqacha aytganda, dehqonchilik madaniyatiga amal qilish, fermer xo'jaliklari boshliqlari va a'zolarining bu boradagi vazifa va majburiyatlari bayon etilgan.

Fermer xo'jaliklari uzoq muddatga ijaraga berilgan sug'oriladigan yer maydonining har bir qarichidan oqilona va samarali foydalanish orqali dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda qo'shimcha daromad olish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan.

11. Ortiqov Z. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lida // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№9. –B. 2.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Yurtboshimiz tomonidan xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, aholi talabini o'zimizda yetishtirilayotgan ekologik va sifatli meva-sabzavot, poliz, uzum va kartoshka mahsulotlar hisobiga to'la qondirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda, deydi muallif.

Biz ushbu maqolada berilgan statistik ma'lumotlardan bitiruv malakaviy ishini ikkinchi bobini yoritishda foydalandik.

12. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va menejmenti. – T.: Cho'lpon, 2012. – 320 b.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan mazkur darslik 4-bo'lim, 18-bobdan iborat. Darslikning 3-bo'limi "Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi" deb nomlanib, bu bo'lim o'z ichiga 12-bob "Dehqonchilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi" (215-235 betlar) qamrab olgan. Shuningdek, darslikning 15-bobi "Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi" (266-274 betlar) deb nomlanib, bitiruv malakaviy ishining nazariy qismini yoritishda foydalandik.

13. Tursunov S. Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi.– T.: Tafakkur-bo'ston, 2013. – 288 b.

Muallif mazkur darslikda mamlakatimiz va chet mamlakatlar qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan dala ekinlarining halq xo'jaligidagi ahamiyati, hosildorligi, biologik xususiyatlari va yetishtirish agrotexnologiyasi bayon qilgan.

Mazkur darslik 9-bobdan iborat bo'lib, uning 1-bob "Dala ekinlari" (9-63 betlar) deb nomlanib, uning 1.3-bo'limida bug'doy yetishtirish texnologiyasi (21-55 betlar), jumladan, bug'doyning kelib chiqishi, bug'doy navlari, bug'doyni dalada parvarish qilish, yig'ib olish texnologiyasi haqida fikrlar yuritilgan. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda ushbu bo'lim ma'lumotlaridan foydalandik.

14. Tursunov U., Yuldashev B. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№4. –B. 35.

Mualliflar bugungi kunda fermer xo'jaliklarda xarajatlar hisobining qiyin muammolaridan biri xarajatlarni paydo bo'lish joylari, mahsulot va javobgarlik markazlari bo'yicha taqsimlash bo'lib, buning uchun ishlab chiqarish tadbirlari boshlang'ich hisobni yagona metodologiya bo'yicha tashkil qilishi kerak, aks holda fermer xo'jalik xarajatlar yig'indisi va mahsulot tannarxini aniqlash qiyin va ko'rsatkichlarini taqqoslab bo'lmaydi, deb ta'kidlashgan. Mualliflar fikricha qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini aniqlashda faqat bir xil usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

15. Tursunov U. va boshqalar. Ishlab chiqarishni boshqarishda xarajatlarni roli // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2012. -№3. – B. 40-41.

Har bir xo'jalik subyekti uchun tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish xalq xo'jaligi va aholi ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Mahsulotni rejadagi hajmi bo'yicha sotish ishlab chiqaruvchiga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoniyatini yaratadi hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam qiladi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning tashkiliy shakli bevosita xarajatlar va mahsulot tannarxiga ta'sir qiladi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini aniqlashni takomillashtirishda, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda ularni to'g'ri turkumlash va tegishli mahsulot turiga olib borish muhimdir.

Mualliflar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermerlar oldidagi muhim vazifalardan biri ma'lum ishlab chiqarish hajmida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi qanchaga teng bo'lishini aniqlashdan iborat, deb ta'kidlashadi.

16. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. –T.: Adib, 2011. - 487 b.

Ushbu darslikda iqtisodiyotning qurilish, qishloq xo'jaligi, avtotransport, savdo, umumiy ovqatlantirish kabi muhim tarmoqlari va sohalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari yoritilgan. Darslikda alohida e'tibor ushbu tarmoq va sohaga tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga, ularda aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natija hamda moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdagi xususiyatlariga qaratilgan.

Darslik kirish, to'rt bo'lim, 28-bobdan iborat bo'lib, darslikning II-bo'limi «Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari» deb nomlanib, bu bo'lim o'z ichiga 9 – 16 boblarni qamrab olgan. Darslikning 12-bobi dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishga bag'ishlangan bo'lib, bunda dehqonchilik ishlab chiqarish

xarajatlarining tasnifi, tarkibi, tavsifi, mahsulot kiriminining dastlabki hisobi, ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash usullari yoritilgan.

Darslikning yana bir e'tiborni jalb qiladigan tomoni shundaki, mualliflar tomonidan poliz ekinlari, makkajo'xori, lavlagi, tamaki, meva va uzumlar, choy tannarxini aniqlash usullarini batafsil yoritilganidir.

17. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. – T.: Cho'lpon, 2013. – 312 b.

Mazkur darslik to'qqiz bobdan iborat bo'lib, unda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, ishlab chiqarish zararsizligining tahlili, bdjetlashtirish, transfert bahoni shakllantirish, segmentlar bo'yicha hisob va hisobot kabi boshqaruv hisobining zamonaviy yo'nalishlari keng yoritilgan.

Darslikning II bob "Xarajatlarni turkumlash va hisobga olish" (23-49 betlar), III bobi "Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari" (50-98 betlar) deb nomlanib, ayniqsa, uchinchi bobda berilgan mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning usullari hamda tannarxni aniqlashning "Direkt-kosting" va "Standart-kost" tizimlari diqqatga sazovordir. Biz bitiruv malakaviy ishini uchinchi bobini yoritishda ushbu fikrlardan foydalandik.

18. Qudratov T., Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. – T.: Voris, 2012. – 256 b.

Mazkur darslikda korxonalar faoliyatini tahlil qilish usullari, ularning moliyaviy, boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarning natijalarini qiyoslama va omilli tahlil qilishning nazariy hamda uslubiy asoslari yoritilgan.

Darslik 15 bobdan iborat bo'lib, bitiruv malakaviy ishining 2 va 3 boblarini yoritishda darslikning VI bobi "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili" (116-127 betlar) bo'limidan keng foydalandik.

19. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand: N-Doba, 2010. – 191 b.

Ushbu qo'llanma 13-bobdan iborat bo'lib, uning 8-bobi bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahliliga bag'ishlanadi. Bu bobda tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, o'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini aniqlash, hisoblash tartibi aniq misollar bilan yoritilgan. Bundan tashqari ushbu bobda tannarxni xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlil qilish usullari va yo'llari batafsil bayon qilingan.

Umuman olganimizda, ushbu o'quv qo'llanmada qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatini qamrab oluvchi barcha ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va tahlil asosida tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

20. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi matbuot xizmati. Islohotlar taraqqiyot va rivojlanishga xizmat qilmoqda // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№2. –B. 1-2.

Mazkur maqolada mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanish borasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar to'g'risida fikr yuritilgan. Jumladan, 2013 yilda mamlakatimiz fermer xo'jaliklari tomonidan 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Ulkan xirmonga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xom ashyosi yetkazib berildi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritishlari uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarini puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Yurtboshimizning fermer xo'jaliklari qishloqlarimizning tayanch ustunidir, degan ta'riflagani bejis emas.

2. FERMER XO'JALIKLARIDA RESURSLAR SALOHİYATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

2.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosida rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanishdan iborat.

Mamlakatimiz iqtisodining barcha sohalaridagi kabi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ham 2013 yil ulkan yutuqlarga boy bo'ldi. Sohadagi yuksalishlarni Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida alohida e'tirof etdi. Jumladan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga oshdi.

Qishloq xo'jaligining o'zida ham keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda. Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Xususan, g'alla yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka 3,1 marta, sabzavot 3,2 barobar, uzum 2 marta, go'sht va sut 2,1 karra, tuxum 3,4 barobar oshdi. Natijada aholi jon boshiga sabzavot ishlab chiqarish 283,1 kg, kartoshka 76 kg, poliz 50,8 kg, meva 76,9 kg va uzum 43,2 kg to'g'ri kelmoqda.

Fermer xo'jaligi samarali faoliyat ko'rsatishi uchun barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular amal qilishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu sohada ayniqsa, fermer xo'jaligini tashkil topishi va

rivojlanishiga bevosita taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Fermer xo'jaligi to'g'risida qonunlari qabul qilindi.

Natijada fermer xo'jaliklarining o'zlariga biriktirilgan yer, suv va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarish hajmini va iqtisodiy samaradorligini muntazam oshib borishi ta'minlanmoqda.

Mamlakatimiz aholisi sonining o'sishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish va mahsulot sifatini yanada yaxshilashni talab qiladi. Bu muammoni yechishda birinchi navbatda tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, qishloq xo'jalik ekinlarini tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda oziqlantirish masalalarini hal qilish zarur.

Tuproq va iqlim sharoitimiz xilma-xilligi, suv tanqisligi, kuzgi yog'in miqdorining kam bo'layotganligi sababli kuzgi bug'doy yetishtirishda har bir hududning tuproq-iqlim sharoitini hisobga olish zarur. G'alla yetishtirish texnologiyasi har bir mintaqaga xos bo'lib, g'alladan o'sha sharoitda yuqori va sifatli don yetishtirilishga qaratilishi kerak.

Ma'lumki o'tgan yilning kuz-qish oylari keyingi 20 yil davomida kuzatilmagan ob-havo sharoitini o'tkazmoqda. Ayniqsa, kuz-qish oylarining iliq kelishi g'alla parvarishiga jiddiy e'tibor berishni taqozo etmoqda.

G'alla, xususan kuzgi bug'doy urug'i maqbul muddatlarda ekilganda qishki tinim davrini 60-65 kundan ko'p o'tkazadi. Bu yilgi kuz-qish oylarining har yilgidan iliq bo'lishi g'allaning biologik rivojlanishini o'zgartirmoqda. Havo harorati +3-5 daraja bo'lganda g'alla qishki tinim davriga o'tadi. Biroq hozirgi kuzatilayotgan ob-havo sharoiti g'alla nihollarini tinim davriga to'liq o'tishi uchun sharoit yaratmayapti. Bundan tashqari 2013 yil kuzida yog'ingarchiliksiz va havoning quruq-iliq kelishi va tuproqni 10-15 sm.li qatlamidagi namlikning pasayib ketishi tufayli bug'doy maysalari rivojlanishi ko'ngildagidek emas. Bugungi kunda respublikamizda g'alla maydonlarining 15-20 foizida nihollar

ertaki bo'lib, 7-8 tadan, 65-70 foizida 3-4 tadan va 10-15 foizida esa 1-2 tadan tuplagan holatda rivojlanmoqda.

Qo'shrobod tuman fermer xo'jaliklari ekin maydonlarining hozirgi holatini o'rganib, tahlil qilganimizda quyidagi natijalarga erishdik (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Qo'shrobod tumani fermer xo'jaliklarida ekin maydonlarining o'zgarishi dinamikasi*

№	Ekin turlari	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
		Ekin maydoni, ga	Salmog'i, %	Ekin maydoni, ga	Salmog'i, %	Ekin maydoni, ga	Salmog'i, %
1.	G'alla	0	0	4238	83,3	4650	83,4
2.	Sabzavot	346	27,7	86	1,7	160	2,9
3.	Kartoshka	160	12,8	20	0,4	45	0,8
4.	Poliz	75	6,0	75	1,5	55	1,0
5.	Meva	78	6,2	78	1,5	78	1,4
6.	Uzum	590	47,2	590	11,6	590	10,6
	Jami:	1249	100	5087	100,0	5578	100,0

***Manba:** Samarqand viloyat statistika boshqarmasi 2011-2013 yillar ma'lumotlari.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda tuman bo'yicha jami ekin maydoni 5578 gektarni tashkil etib, ekin maydonlari tarkibida g'alla maydoni 83,4 foizni, sabzavot ekinlari maydoni 2,9 foizni, kartoshka maydoni 0,8 foizni, poliz maydoni 1,0 foizni, meva maydoni 1,4 foizni, hosilli uzum maydoni 10,6 foizni tashkil etgan.

Qo'shrobod tumani fermer xo'jaliklarining dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini o'rganganimizda (2.1.2-jadval), 2013 yilda 8595 tonna g'alla, 2460 tonna sabzavot, 860 tonna kartoshka, 360 tonna poliz, 1131 tonna meva va 4526 tonna uzum yalpi mahsuloti olingin bo'lib, 2011 yilga nisbatan faqatgina g'alla (2011 yilda g'alla kirim qilinmagan) va mevadani yuqori hosil olishga erishilgan. Shuning uchun tuman fermer xo'jaliklarida qo'shimcha choratadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

2.1.2-jadval

Qo'shrobod tumani fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlari yalpi hosilining o'zgarishi (tonna)*

T/r	Ekin turlari	Yillar			2013 yilda o'zgarishi, +/-	
		2011	2012	2013	2011 yilga nisbatan	2012 yilga nisbatan
1.	G'alla	0	1800	8595	8595	6795
2.	Sabzavot	4531	6295	2460	-2071	-3835
3.	Kartoshka	4570	4555	860	-3710	-3695
4.	Poliz	1937	1559	360	-1577	-1199
5.	Meva	633	678	1131	498	453
6.	Uzum	6722	5292	4526	-2196	-766

***Manba:** Samarqand viloyat statistika boshqarmasi 2011-2013 yillar ma'lumotlari.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligida yaroqli bo'lgan yer va suvdan foydalanish ahvoli ham ni o'rganildi va shu asosida ulardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlab, takliflar berildi.

Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligi tumanning lalmikor g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan biridir. «Asad» fermer xo'jaligi 2003 yilda tashkil etilgan bo'lib, fermer xo'jaligining yer maydoni dinamikasining keyingi yillardagi holatini ko'rganimizda u quyidagicha bo'lgan (2.1.3-jadval)

2.1.3-jadval

Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligining yer resurslari dinamikasi (ga)*

Ko'rsatkichlar	Yillar		2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-
	2011	2013	
Jami yer maydoni	62	89	27
Ekin maydoni	58	82	24
Shundan: haydaladigan yerlar	58	82	24
Yaylov	4	7	3
Lalmi yerlar	58	82	24

***Manba:** Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2011-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

2.1.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda fermer xo'jalik yer maydonining asosiy qismini, ya'ni 82 gektarini yoki 92,1 foizni haydaladigan lalmi ekin maydoni tashkil etadi. Xo'jalikning ekin maydoni 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 24 gektarga oshgan.

O'simlikchilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Ushbu tarmoqning barcha sohalarida yetishtiriladigan natura mahsulotlarining miqdori yalpi hosil deb ataladi. «Asad» fermer xo'jaligida ekinlarning dinamikasini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.1.4-jadval)

2.1.4-jadval

**Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida
ekinlar dinamikasi***

Ekin turlari	Yillar						2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-		
	2011			2013					
	Maydoni, ga	Hosildorlik, s	Yalpi hosil, s	Maydoni, ga	Hosildorlik, s	Yalpi hosil, s	Maydoni, ga	Hosildorlik, s	Yalpi hosil, s
Bug'doy	50,3	8,4	422,5	68,6	17,2	1179,9	18,3	8,8	757,4
Masxar	7,7	7	53,9	13,4	9,2	123,3	5,7	2,2	69,4

*Manba: Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2011-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

Yuqoridagi 2.1.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik ekinlaridan lalmi bug'doy va masxar yetishtirilib, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan bug'doydan 757,4 sentner, masxardan 69,4 sentner ko'p hosil olingan. Bu ko'payish bug'doy ekin maydonining 18,3 gektarga va masxar ekin maydonining 5,7 sentnerga hamda 2013 yilda bahorning seryog'in kelib, tuproqda namlik yetarli bo'lganligi natijasida fermer xo'jalikda mavjud ekin maydonlaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan ekinlar hosildorligining oshishi hisobiga bo'lgan va u quyidagi 2.1.5-jadvalda berilgan.

2.1.5- jadval

Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligida lalmi bug'doy navlari hosildorligi (s/ga)*

Ekin turi	Yillar		2013 yilda 2011 yilga nisbatan hosildorlikning o'zgarishi, +/-
	2011	2013	
	«Qizil shalola-210» navi	«Surxak» navi	
Bug'doy	8,4	17,2	8,8

*Manba: Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2011-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

2.1.5–jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda lalmi g'alla hosildorligi 2011 yilga nisbatan 8,8 sentnerga ko'paygan. Lalmi g'alla hosildorligi 2013 yilda 17,2 sentnerni tashkil etgan bo'lib, fermer xo'jalikda 2011 yilda g'alla yetishtirish rejasi bajarilsada, uning hosildorligi 2013 yilga nisbatan kamaygan. 2011 yilda ekilgan «Qizil shalola-210» lalmi bug'doy naviga nisbatan 2013 yilda ekilgan yuqori hosilli «Surxak» lalmi bug'doy navi hissasining oshishi o'rtacha g'alla hosildorligini oshirgan. Fermer xo'jalikda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari bo'lib, ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuqori hosilli lalmi bug'doy navini yanada hissasini oshirish, buning uchun ilmiy-tadqiqot ishlari yangiliklari va ilg'or fermer xo'jaliklar natijalariga asoslanib, hosildorlikning ko'payishiga sababchi bo'luvchi asosiy omillarni aniqlash va ta'sir qilish darajasini o'rganish zarur.

Qo'shrobod tumani «Asad» fermer xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulot turlarini ko'radigan bo'lsak, ularning turlari keyingi yillarda oshib bormoqda. Ayniqsa, fermer xo'jalikda masxar va no'xat yetishtirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Shular bilan birga fermer xo'jaligida g'alla yetishtirish bilan bir qatorda suvsizlikka chidamli sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirishni, shuningdek chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi

Mehnat – bu insoning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgani holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mehnat jarayoni, insoning ish joyida, uning mehnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarning to'plamini bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar 16 dan 60 yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Mehnat resurslari deganda, qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar tushuniladi. Mehnat resurslari ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy omillardandir. Shuning uchun ham ularning holati va harakatini, xo'jalikning ular bilan ta'minlanish darajasini hamda ulardan xo'jalikning foydalanish ahvolini o'rganish va mavjud imkoniyatlarni aniqlashda va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishda katta rol o'ynaydi. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi me'yor atrofida bo'lsa, albatta ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir qiladi, ayniqsa mehnat resurslaridan foydalanish samarali bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining o'sishiga, mehnat unumdorligining oshishi sababchi bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida resurslaridan foydalanishning darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

- Har bir ishchi xodimning bir yilda ishlagan kunlari. Odatda, qishloq xo'jaligida erkaklar bir yilda 280 kun, ayollar 240 kun ishlasa normal hisoblanadi.

- Yil davomida ishlashi lozim bo'lgan kundan foydalanish koeffitsienti. Bu haqiqatda ishlagan kunlarni me'yor bo'yicha ishlashi lozim bo'lgan yillik ish kunlari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. Xo'jalikning mehnat resurslari holatini o'rganish uchun mehnat resurslari balansi tuziladi. Balans ma'lumotlari xo'jalikning iqtisodiy rivojlantirilishida ishlatiladi.

- Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yil davomida bir ishchi xodim hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni sarflangan kishi soatlariga nisbatan aniqlash mehnatning samaradorligini to'g'riroq aniqlash imkonini beradi.

- Mehnat resurslarning qo'nimsizlik koeffitsienti

$$K_t = \frac{MR_{ab}}{MR_s}$$

Bunda:

K_t – mehnat resurslarning qo'nimsizlik koeffitsienti;

MR_{ab} – o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MR_s – mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni.

- Kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsienti

$$K_m = \left(1 - \frac{MR_{ab}}{MR_{sb}} + \frac{MR_{ya}}{MR_{sx}}\right) \times 100$$

Bunda:

K_m - kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsienti

MR_{ab} - o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MR_{sb} va MR_{sx} – bazis va hisobot yillarda (davrda) korxonada ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni.

- Mehnatni mavsumiylik koeffitsienti

$$MR_{mk} = \frac{MX_{maks}}{MX_{o'r}}$$

Bunda:

$MRmk$ – mehnatning mavsumiylik koeffitsienti;

$MX maks$ – oylik mehnatning maksimal sarfi;

$MX o'$ – mehnatning oylik o'rtacha sarfi.

- Ishsizlik darajasi

$$Id = \frac{Is}{IFs(IK)} \times 100$$

Bunda:

Id – ishsizlik darajasi, %

Is – ishsizlar soni, kishi

$IFs (IK)$ – iqtisodiy faol aholi yoki ishchi kuchlari soni, kishi

- Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi

$$MRt = \frac{MR}{Yer, ga}$$

Bunda:

MRt – 100 gani mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi;

MR – Ishchi xodimlar soni, kishi;

Yer – yer maydoni (jami, ekin, sug'oriladigan yer maydonlari), ga.

- Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

$$MRtk = \frac{MRm}{MRr}$$

Bunda:

$MRtk$ - Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

MRm – mavjud mehnat resurslari soni, kishi;

MRr – rejalashtirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun talab qilinadigan mehnat resurslari, soni.

Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanib, ularni har biri mehnat resurslaridan foydalanishning ayrim tomonlarini ifoda etadi. Ularni birgalikda aniqlash va tahlil qilish to'g'ri xulosalar chiqarish va foydali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari mehnatining fond, energetik quvvatlar bilan qurollanish darajasini oshirish ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llaridan biridir. Qishloq xo'jaligida mehnat har bir ekin turi yoki mahsulot turi bo'yicha texnologiyani hisobga olgan xolda zarur vositalar bilan ta'minlanishi kerak. Shu sababli, ayniqsa, kichik texnika ishlab chiqarishni yoki xorijdan sotib olishni yo'lga qo'yish, rivojlantirish talab qilinadi.

Mehnat resurslaridan foydalanish o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni, o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni, ish kunining o'rtacha davomiyligi va ish vaqti fondi ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi oshgan sayin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori oshib boradi. Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi ichida (1 kishi-soat, 1 kishi-kuni) yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmi tushuniladi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining farovonligi va real daromadlarini ko'paytirishga ham e'tibor berilmoqda. Mehnat bilan band aholi daromadlarining asosiy qismini mehnat haqi tashkil etadi. «Barchamizga ma'lumki, aholi ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi... Biz har uch yilda ish haqini 2 - 2,5 barobar oshirishni o'z oldimizga muhim strategik vazifa qilib qo'yganmiz. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, biz yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»¹.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirishda muhim omillardan biri mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida sarflangan qo'l mehnatining hajmi ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi, sifati va unga sarflangan mehnatning samaradorlik darajasini ko'rsatadi, ya'ni mehnat kam sarflanib yuqori hosil olinsa, tannarx ham pasayadi.

¹ Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 2008.

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida 2013 yilda jami ishlovchilar soni 6 kishi bo'lib, xodimlarga 2013 yilda to'langan mehnat haqini o'rganganimizda, u quyidagicha bo'lgan (2.2.1–jadval)

2.2.1–jadval

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida xodimlar soni va mehnat haqi to'g'risida ma'lumot*

№	Ko'rsatkichlar	Xodimlarning o'rtacha yillik soni, kishi	Mehnat haqi fondi, ming so'm	Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mehnat haqi	
				Yillik, ming so'm	Oylik, so'm
1.	G'allachilikda band bo'lgan ishlovchilar	4	12956,1	3239,0	269,9
2.	Xizmatchilar	2	6250,3	3125,2	260,4
	Jami:	6	19206,4	3201,1	266,8

*Manba: Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2013 yil hisobot ma'lumotlari.

2.2.1–jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jalikda 2013 yilda mehnat haqi fondi 19206,4 ming so'mni tashkil etib, g'allachilikda o'rtacha oylik mehnat haqi 269900 so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich tumandagi boshqa ilg'or fermer xo'jaliklar ko'rsatkichlariga nisbatan ancha pastdir. Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini yanada oshirish uchun xodimlarni moddiy rag'batlantirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi

Fermer xo'jaliklar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan bo'lib, moddiy resurslar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Har qanday qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish faoliyatini barqaror bo'lishi va uning samaradorligini oshirish uchun moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan va ulardan samarali foydalangan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud

texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, demak, qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi turgan gap. Birgina shu misolning o'zi ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun, asosiy fondlar, xom ashyolar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatlari bo'lishi va ular birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga "Keys", "Magnum", "Class" kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Oz bo'lsa-da, fermer va dehqon xo'jaliklarida kichik texnikalar paydo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi boshqa tarmoqlarnikidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining tarkibiga yer kiradi. yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etishi bizga ma'lum. yerning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish zarur. yerning holatiga qarab o'g'it turlari, o'g'itning miqdori, texnikalarning turi va boshqalar tanlanadi. Agarda yerning meliorativ holatlarini qisobga olmasdan ekin turi, ma'danli o'g'itlar, unga ishlov beradigan texnikalar tanlansa, ishlab chiqarishning natijasi past bo'lishi turgan gap. Ba'zi hollarda yerga bunday munosabatda bo'lish uning ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tabiat qonunlariga boshqa tarmoqlarnikiga nisbatan ko'proq bog'liq. Buning natijasida turli mintaqalarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanish zarurati kelib

chiqadi. Shimoliy zonalarda ekin turlari janubiy zonalardagidan farq qiladi. SHimoliy zonalarda issiq kunlarning nisbatan kam bo'lishi, eng avvalo, qisqa muddatlarda pishib yetiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy hududlarda esa ekin turlarini tanlash imkoniyatlari kattaroq. Bunday holatlar esa moddiy-texnika resurslarining turli mintaqalarda turlicha bo'lishini talab qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi oqibatida ayrim texnika vositalari yilda bir necha kun yoki oy ishlatiladi, xolos. Masalan, don o'rish kombaynlari asosan o'rim – yig'im davrida 2 oy ishlatiladi. yer qazish ishlarida ishlatiladigan ekskavatorlar ham bunga misol bo'la oladi. Qishloq xo'jalik korxonalari qimmatbaho texnikani (kombaynlarni) yil davomida saqlashga majbur. Bu esa katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Natijada, asosiy fondlardan, texnikalardan foydalanish samaradorligi pasayadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar (chorva mollari, ko'p yillik mevali bog'lar, uzumzorlar va boshqalar) tashkil etadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni ham hisobga olishni talab etadi. Aks holda natija past bo'lishi mumkin. Bu xususiyatni hisobga olmaslik xo'jaliklarda mavjud texnikada, fondlardan foydalanish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ishlab chiqarish keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi, yo'l va aloqa kommunikatsiyalari bo'lishini talab qiladi. Texnikalarni bir maydondan ikkinchisiga olib borish, ularni ta'mirlashni tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarini tashkil etishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu xususiyat katta qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi ko'p jihatdan sanoaning rivojlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga moddiy-texnika resurslarining (em-xashak, zotli chorva mollari, urug'liklar kabilar) bir qismi qishloq

xo'jaligining o'zida ishlab chiqariladi. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning sotib olinayotgan va o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy-texnika resurslariga mos ravishda taqsimlanishini talab qiladi. Aks xolda ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatkichlari pasayishi mumkin.

Hozirda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashganlik darajasini oshirish, asta-sekinlik bilan uni sanoat asosiga o'tkazish borasida ishlar olib borilayapti. Bu qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ob'yektiv yo'nalishlaridan biridir.

Asosiy vositalar ishlab chiqarishning muhim omili sifatida qaralib, ular vositasida bevosita mehnat predmetlari va mehnat kuchlari birikuvida mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar bajariladi va xizmatlar ko'rsatiladi.

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida 2014 yil 1 yanvar holatiga 17200 ming so'mlik asosiy fondlar bo'lib, bu 2012 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 5400 ming so'mga ko'pdir. Fermer xo'jaligida asosiy fondning asosiy qismini mahsuldor mollar va ishchi hayvonlar tashkil etadi. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida texnologik jarayonlarni vaqtida o'tkazish uchun bevosita ishlab chiqarishda ishtirok etadigan transport vositalarini xarid qilish maqsadga muvofiqdir.

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligining 2013 yilda g'alla yetishtirish bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganganimizda, fermer xo'jalik g'allachiligida ilk bor 4740 ming so'm sof foyda olishga erishilgan. Bu erishilgan yutuqlar fermer xo'jaligida g'allachilik madaniyati yuksalib borayotganligini ko'rsatadi.

3. LALMIKOR G'ALLACHILIKDA ISHLAB CHIQARISH

XARAJATLARI HISOBI

3.1. Xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va hisobning vazifalari

Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish xarajatlari deb, mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlar, ya'ni mehnat, mehnat qurollari va mehnat predmetlar uchun sarflangan xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlarga aytiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari asosan ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'lib, u ta'minot va sotish jarayonlarini o'zaro bog'lab turadi. Ishlab chiqarishda sodir bo'lgan xarajatlar asosida fermer xo'jaligining moliyaviy natijalari aniqlanadi. Xo'jalikda ishlab chiqarish xarajatlarning mahsulot sotishdan olingan daromaddan kam bo'lishi foydaning ko'payishini ta'minlaydi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari birinchi navbatda, fermer xo'jaligi faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash uchun zarurdir. Buni umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

Mahsulot sotishdan tushgan tushum - xarajatlar = foyda

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari xo'jalikning tovar mahsulot beradigan bosh tarmog'i - o'simlikchilik va chorvachilikda yuzaga keladi. Fermer xo'jaligida xarajatlar va mahsulot chiqimi hisobini tashkil etishda ishlab chiqarishning mavsumiyligi, xarajatlarni amalga oshirish va mahsulotni daromadga olish davrlarining bir-biriga mos kelmasligi, tabiiy omillar (iqlim, ob-havo, yer, yaylov va boshqalar)ning mavjudligi kabi xususiyatlarni e'tiborga olish lozim.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olishda, xo'jalik operatsiyalariga to'g'ri buxgalteriya provodkasi berish va hisob registrlarini o'z vaqtida yuritish uchun xarajatlarni mohiyati va turlarini bilish muhim ahamiyat kasb etib, bu fermer xo'jaligida boshqaruv hisobining samarali ishlashini ta'minlaydi, shuningdek hisob ma'lumotlari asosida xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va

sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro'yxati xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish davomida xo'jalik yurituvchi subyektda paydo bo'ladigan barcha xarajatlar to'g'risida buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va aniq axborot shakllantirilishi, soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadida belgilanadi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, ularning turkumlanishi hamda fermer xo'jaligining hisobot davridagi foydasi bilan bog'liqligidan kelib chiqib, uni taqsimlashni belgilab berdi. Ushbu Nizomga ko'ra xarajatlar to'rt guruhga bo'linib hisobga olinishi belgilangan:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.
2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.
4. Favqulodda zararlar.

Fermer xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi elementlar bo'yicha guruhlanadi:

- Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari.
- Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari.
- Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari.
- Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirish xarajatlari.
- Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Fermer xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar, ya'ni davr xarajatlari quyidagilar: Mahsulot sotish xarajatlari; Ma'muriy - boshqaruv xarajatlari; Boshqa operatsion xarajatlar; Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar: Foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar; Xorijiy valyuta bilan operatsiyalar bo'yicha kurslardagi salbiy farqlar; Qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash natijasidagi zararlar; Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar. Favqulodda zararlar - bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning

odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilish kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

Fermer xo'jaliklarida faoliyat, ishlab chiqarishdan olinadigan mahsulot va bajariladigan ishning qanday maqsadga mo'ljallanishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: asosiy o'simlikchilik va chorvachilik, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Shuningdek, fermer xo'jaliklarda xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishiga ko'ra bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar: bevosita va bilvosita material xarajatlar; bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari; boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

2. Davr xarajatlari (operatsion xarajatlar): mahsulot sotish xarajatlari; ma'muriy yoki boshqaruv xarajatlari; boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar: foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar; xorijiy valyuta bilan operatsiyalar bo'yicha kurslardagi salbiy farqlar; qimmatbaxo kog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash natijasidagi zararlar; moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar;

4. Favqulodda xarajatlar daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'lagunga qadar foyda va zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Yuqoridagi xarajatlar iqtisodiy mazmunga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruxlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi oldiga quyidagi asosiy vazifalar qo'yilgan:

- Fermer xo'jaliklari boshqaruvchilarini har bir ekin turi bo'yicha o'z vaqtida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.
- Ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlarni buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlarida o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish.
- taqsimlanadigan xarajatlarni xarajat ob'yektlari bo'yicha iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash.
- xarajatlarni xarajat ob'yektlari va xarajat moddalari bo'yicha to'g'ri hisobga olib borish.
- ishlab chiqarish xarajatlari va olinadigan mahsulotlar ustidan doimiy nazoratni olib borish.
- mahsulotlarni to'liq daromadga olinishi va saqlanishi ustidan nazorat olib borish.
- lalmi g'alla tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlashni ta'minlash.

3.2. G'alla ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki, sintetik va analitik hisobi

Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishi to'g'risidagi barcha yozuvlar tegishli dastlabki hujjatlar ma'lumotlariga asosan yoziladi. Bunday dastlabki hujjatlar to'rt guruhga: mehnat, mehnat buyumlari va mehnat vositalari sarfihamda mahsulot chiqishiga oid hujjatlar.

Mehnat sarfini hisobga olish hujjatlarida dehqonchilik tarmog'ida o'stirilayotgan ekinlar bo'yicha muayyan ishlarni bajarish uchun sarflangan mehnat va hisoblangan to'lov aks ettiriladi. Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarda traktorchi mashinistning hisob varaqalari (67-a va 67-b shakllar), mexanizatsiyalashtirilmagan ishlarda mehnat hisobi va bajarilgan ishlar varaqalari (66-va 66-a shakllari) qo'llanadi. Shuningdek, ishbay ishlarda ishlangan vaqtni hisobga olish uchun – ish vaqtini hisobga olish tabeli (64-shakl) qo'llanadi.

Mehnat predmetlari sarfi hisobga olinadigan hujjatlarda dehqonchilik tarmog'ida sarflanganturli moddiy qiymatlar: urug'lik, o'g'it, zaharli ximikatlar, gerbitsidlar, ehtiyotqismlar va hokazolarni qayd etadi.

Ekishga sarflangan urug' va ekish Materiallari urug' va ekish materillarini sarflash dalolatnomasi (119-shakl), o'g'it, zaharli ximikat va gerbitsidlar sarfi – ma'danli, organik va bakterial o'g'itlar zaharli ximikatlar va gerbitsidlarni ishlatish to'g'risida dalolatnoma (118-shakl), mayda inventar va buyumlar – ishlab chiqarish va xo'jalik inventari va buyumlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (126-shakl) bilan rasmiylashtiriladi va hokazo. Dastlabki hujjatlar ko'rsatkichlari oy oxirida moddiy qiymatlar harakati haqidagihisobotlarda (121-shakl) umumlashtiriladi, shundan so'ng bo'linmalarning ishlab chiqarish hisobotlariga moddiy qiymatlar sarfi haqida tegishli yozuvlar kiritiladi.

Mehnat vositalari sarfini hisobgaolish hujjatlari dehqonchilik tarmog'ida foydalanilgan mehnat vositalari bo'yicha xarajatlar, xususan hisoblangan amortizatsiya ajratmalari aks ettiriladi. Bunga amortizatsiyani hisoblash va taqsimlash bo'yicha turli hisob-kitoblar: yil boshidagi holatiga ko'ra asosiy

vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalar hisob-kitobi kelib (52-shakl) tushgan vachiqib ketgan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari hisob-kitobi (60-shakl), bir oylik amortizatsiya ajratmalarini hisoblash qaydnomasi (62-shakl), dehqonchilik tarmog'idagi asosiy vositalari bo'yicha hisoblangan amortizatsiyasi taqsimlash qaydnomasi (63-shakl).

Bu guruh bilan asosiy vositalarni joriy ta'mirlash bo'yicha hujjatlar uzviy boglangan. Bularga mashinalarni ta'mirlash uchun defektlar qaydnomasi (130-shakl), joriy ta'mirlash xarajatlarini taqsimlash qaydnomasi taalluqlidir.

Mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo'yicha hujjatlar: don, texnik ekinlar, sabzavot, meva, ozuqa kabidehqonchilik tarmogi mahsulotlarini kirim qilish qayd etiladi. Bularga: donekinlari bo'yicha – don va boshqa mahsulotlarni daladan jo'natish qaydnomasi (77-shakl), mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanmasi (77-a-shakl), donni talonli hisobga olish usulida talonlar (77-b, 77-v, 77-g-shakl), don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish reestri (78-shakl), donni tarozibon tomonidan qabul qilish reestri (78-a-shakl), don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi (80-shakl); kartoshka, sabzavot, meva, rezavor meva va boshqa ekinlar bo'yicha - qishloq xo'jalik mahsulotining kelib tushish qaydnomasi (82-shakl), yopiq yerga ekilgan mahsulotning kelib tushish qaydnomasi (83-shakl), bog'dorchilik mahsulotlarini kelib tushish qaydnomasi (84-shakl); ozuqa ekinlari bo'yicha – dag'al va shirali ozuqalarni qabul qilish dalolatnomasi (92-shakl), yaylovozuqalarini kirim qilish dalolatnomasi (93 va 93-a-shakllari) kiradi. Dehqonchilik tarmog'ida xarajatlarni hisobga olish bo'yicha ham, mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo'yicha ham ko'p miqdordagi xilma-xil hujjatlardan foydalaniladi. Har bir guruh hujjatlaridagi ma'lumotlar ularga ishlov berilganda ma'lum belgilariga ko'ra hujjatlarning harakatlanishi va ishlatilish tavsifiga ko'ra bir tizimga solinadi. Mehnat sarflari hisobga olinadigan hujjatlarning ma'lumotlari ish haqi hisoblash va to'lash uchun har bir xodim hamda xodimlar toifasi bo'yicha ish haqi fondidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida umumlashtiriladi. Mehnat predmetlarini hisobga olinadigan hujjatlarning ma'lumotlari moddiy

javobgar shaxslar hamda moddiy qiymatlarning kelib tushishi va sarflanishi yoʻnalishlari boʻyicha bir tizimga solinadi. Mehnat vositalarining sarflanishi hisobga olinadigan hujjatlarning maʼlumotlari bir turdagi asosiy vositalar guruhlari va turlari hamda asosiy vositalardan foydalanish yoʻnalishlari boʻyicha bir tizimga solinadi. Mahsulotlar chiqishi hisobga olinadigan hujjatlar maʼlumotlari mahsulot turlari, moddiy javobgar shaxslar, mahsulotning kelib tushish va sarflanish yoʻnalishlari boʻyicha bir tizimga solinadi. Shuningdek, dehqonchilik sohasidagi barcha hujjatlarning maʼlumotlari xarajatlarni hisobga olish obʼyektlari – ish turlari hamda ekinlar (ekin guruhlari) boʻyicha albatta bir tizimga keltiriladi. Bunday bir tizimga keltirishda maxsus ishlabchiqilgan jamgʻarma qaydnomalar va jurnallardan foydalaniladi. Masalan, yuqorida aytib oʻtilgan mehnat sarflari toʻgʻrisidagi va boshqa ayrim hujjatlarning maʼlumotlari yuqorida koʻrib chiqilgan, taʼmirlash ustaxonasidan foydalanish, jamgʻarma qaydnomasi (73-shakl) hamda ish va boshqa xarajatlarni hisobga olish jurnalida (37-shakl) toʻplanadi.

Ish va xarajatlarni hisobga olish jurnallari ishlab chiqarish boʻlinmalarida yuritiladi. Ularda har bir ekin (ekinlar guruhi), bajariladigan ishlar va hisobning boshqa obʼyektlari uchun taxmin qilinayotgan yozuvlar miqdoriga koʻra sahifalar ajratiladi. U yoki bu ekinga taalluqli ish turlari texnologik kartaga muvofiq tarzda yoziladi. Har bir hisob obʼyekti boʻyicha bajarilgan ishlarning hajmi naturadahamda shartli etalon gektarga aylantirib, ishlangan vaqt soatlarda va hisoblab oʻtkazilgan toʻlov (traktorchilar va boshqa xodimlar boʻyicha alohida alohida) yoqilgʻi sarfi (norma boʻyicha haqiqiysi), yorugʻlik va ekish materiallarining sarfi va boshqa xarajatlar qayd etiladi. Ish va xarajatlarni hisobga jurnali dastlabki hujjatlar asosida, taʼmirlash ustaxonasi xarajatlari boʻyicha esa taʼmirlash ustaxonasidan foydalanish jamgʻarma qaydnoma (37-a-shakl) asosida qilinadi.

Dehqonchilik tarmogʻida qilingan xarajatlar va yetishtirilgan mahsulotlar 2010-«Dehqonchilik»schotida hisobga olinadi. Bu schot debetida mahsulot yetishtirish uchun qilingan xarajatlar hisobga olinsa, kreditida esa yetishtirilgan

mahsulotlarning reja tannarxida baholangan qiymatiga yil oxirida reja tannarxi bilan haqiqiy tannarx o'rtasidagi tafovut aks ettiriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari yil oxirida ushbu schot debetida qoldiq tarzida aks ettirilib, yillik balansdako'rsatiladi. Boshqaruv buxgalteriya hisobini tashkil etishda xo'jalik bo'yicha xarajat ob'yektlarini to'g'ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Dehqonchilikda xarajat ob'yektlari bo'libekin turlari yoki guruhlari, ishlar, taqsimlanadigan xarajat turlari va boshqa ob'yektlar hisoblanadi.

Dehqonchilikda xarajatlari va olingan mahsulotlarning analitik hisobi «O'simlikchilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi. Ushbu qaydnoma ma'lumotlari xarajat limitlariga rioya qilinishini nazorat qilish hamda butun xo'jalik bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil etish uchun foydalaniladi. Qaydnomada xarajatlari har oyda o'simliklar (o'simlik guruhlari) va tegishli xarajat moddalari bo'yicha bir oylik va yil boshidan o'sib boruvchan tartibda aks ettirib boriladi.

Ayrim o'simliklarni parvarishlash uchun qilingan xarajatlarni hisobga olishga mo'ljallangan analitik schotlardan tashqari, mustaqil hisob ob'yektlarini aks ettirish uchun quyidagi analitik schotlar ochiladi:

«O'simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalar bo'yichataqsimlanmagan amortizatsiya ajratmalari», «o'simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalarning taqsimlanadigan joriy ta'mirlash xarajatlari», «taqsimlanadigan sug'orish xarajatlari», «sho'r yuvish xarajatlari» va h.k. Bu analitik schotlarda o'simlik turlari (o'simlik guruhlari) ga bevosita o'tkazib bo'lmaydigan tegishli xarajatlari yil davomida to'planib boradi.

O'simlik va ish turlari bo'yicha guruhlangan jami ma'lumotlar oy oxirida ishlarni va xarajatlarni hisobga olish jurnali (37-shakl) dan qaydnomaga o'tkaziladi.

Amortizatsiya, joriy ta'mirlash xarajatlari, sug'urta to'lovlari va o'simlikchilik bo'linmasiga biriktirilgan qishloq xo'jalik mashinalarini saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari yordamchi ishlab chiqarishlar, asosiy vositalarni

saqlash va ishlatish bo'yicha yil davomida to'planib boriladi. Ko'rsatilgan xarajatlar yil oxirida tegishli o'simliklar (o'simliklar guruhi) va bo'linmadagi hamda boshqa bo'linmalardagi hisob ob'yektlariga bajarilgan shartli etalon gektarlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Buning uchun mazkur qaydnomada ishlangan shartli etalon gektarlarda o'simliklar (o'simliklar guruhi) bo'yicha aks ettiriladi.

Bundan tashqari, yil oxirida, tegishli o'simlik turlari (guruhlari)ga xizmat ko'rsatgan boshqa bo'linmalardagi asosiy vositalarning amortizatsiyasi, joriy ta'mirlash xarajatlari, sug'urta to'lovlari va boshqa qishloq xo'jalik texnikalarini saqlash va foydalanish bo'yicha boshqa xarajatlar o'tkaziladi.

Oy oxirida, korrespondensiyalanuvchischotlar bo'yicha bir tizimga keltirilgan jami xarajatlar, qaydnomadan 10-ASK jurnal-orderga o'tkaziladi.

Qaydnomaning II «O'simlikchilik mahsulotlari chiqishi» bo'limida yig'ib-terib olingan maydon, kirim qilingan mahsulotlar miqdori, qiymati ko'rsatiladi. Bundan tashqari, qaydnoma ma'lumotlaridan fermer xo'jaligining faoliyatini yakunlash, mahsulot yetishtirish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va ishlab chiqarish xarajatlari limitlariga rioya qilinishini aniqlanadi. Oy davomida 2010-schoti kreditining korrespondensiyalanuvchi schotlar bo'yicha barcha muomalalar bir tizimga keltirilib, jami ma'lumotlar qaydnomadan 10-ASK jurnal-orderga o'tkaziladi.

Dehqonchilik tarmog'i xarajatlari va mahsulotlarining chiqishini hisobga olish 2010-«Asosiy ishlab chiqarishlar» schotida amalga oshiriladi. Bu schotning debetida ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, kreditida – mahsulotning chiqishi hisobga olinadi. Debet va kredit bo'yicha yozuvlar yil davomida o'sib boruvchi summalarda tashkil qilinadi; shunga ko'ra joriy balansda schotning ma'lumotlari yoyilgan holda ko'rsatiladi.

Faqat yil oxiriga kelib schot bo'yicha qoldiq aniqlanib, uni yakuniy balansda dehqonchilik tarmog'ining tugallanmagan ishlab chiqarish summasi sifatida aks ettiriladi. Yil davomida o'simlikchilikdan olingan mahsulotlar reja tannarxi

bo'yicha baholanib, 2010-schot kreditidan 2811-«Ombordagi o'simlikchilik mahsulotlari» schotining debetiga kirim qilinadi.

Dehqonchilik tarmog'ida xarajatlar quyidagi ob'yektlar bo'yicha hisobga olinadi:

1. Ekinlar yoki ekin guruhlar
2. Qishloq xo'jalik ishlari
3. Taqsimlanadigan xarajatlar
4. Boshqa ob'yektlar

Xarajatlarni u yoki bu ekin turining joriy yildagi hosiliga bevosita o'tkazish mumkin bo'lgan barcha hollarda ular birinchi guruh bo'yicha xarajatlar ob'yektlariga taalluqli schotlarda hisobga olinadi. Ikkinchi guruhda xarajatlarni hisobga olish ob'yektlari tarkibida kelgusi yil hosili uchun qilingan qishloq xo'jalik ishlarini bajarish xarajatlari aks ettiriladi, bularni tabiiyki, hosilijoriy yilda olinadigan ekinlar xarajatlarini hisobga olish ob'yektlariga o'tkazib bo'lmaydi. Ularni hisobga oluvchi uchinchi guruh ob'yektlari tarkibida hisobning bir necha yoki ko'pgina ob'yektlariga o'tkaziladigan, demak, ularga taqsimlanadigan (joriy ta'mirlash, sug'orish va sho'r yuvish xarajatlari va boshqalar) xarajatlar hisobga olinadi. To'rtinchi guruh ob'yektlari tarkibida ozuqa ishlab chiqarish vaayrim boshqa xarajatlar hisobga olinadi.

Dehqonchilik xarajatlarning analitik hisobi quyidagi moddalar bo'yicha yuritiladi:

1. Mehnat haqi ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birga
2. Urug'lik va ko'chat materiallari
3. O'g'itlar
4. O'simliklarni himoya qilish vositalari
5. Ishlar va xizmatlar
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
7. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari
8. Sug'urta to'lovlari

9. Boshqa xarajatlar

«Mehnat haqi ijtimoiy sugʻurta xarajatlari bilan birga» moddasida muayyan ekin turlari yokiguruhlarining bevosita texnologiya jarayonida ishlagan turli toifadagi xodimlarga hisoblangan mehnat haqi tavsifiga ega boʻlgan pul va natura toʻlovlari hisobga olinadi. Xodimlarning asosiy va qoʻshimcha mehnat haqlari, ijtimoiy sugʻurta va taʼminot fondiga oʻtkazilgan ajratmalar hamda taʼtil haqi ajratmalari ham shu moddada hisobga olinadi. Aniq bir ekin va ish turiga oʻtkazish mumkin boʻlmagan mehnat haqlari hisob obʼyektlari oʻrtasida mehnat haqiga mutanosib taqsimlanadi.

«Urugʻlik va koʻchat xarajatlar» moddasida xoʻjalikning oʻzida yetishtirilgan va sotib olingan urugʻlik va koʻchatlar hamda ularning tegishli ekinlarni ekish uchun sarflanishi aks ettiriladi. Bunda oldingi yillarda yetishtirilgan hamda sotib olingan urugʻlikva koʻchatlar haqiqiy tannarxida aks ettirilsa, joriy yilda yetishtirilgan urugʻ va koʻchatlar yil davomida reja tannarxda hisobga olinib, yil oxirida haqiqiy tannarx darajasiga yetkazib quyiladi. Urugʻlarni ekishga tayyorlash (quritish, saralash va boshqa ishlov berish) xarajatlari ularning tannarxiga oʻtkaziladi. Lekin bevosita ekish oldidan qilinadigan xarajatlar (urugʻni ekish joyiga tashib keltirish, ortish, tushirish, dorilash, ivitish vashu kabilar) urugʻning tannarxiga oʻtkazilmay, bevosita oʻsimlikchilikning tegishli xarajat moddalari (mehnat haqi, ishlar va xizmatlar, asosiy vositalarni saqlash xarajatlari)ga yoziladi.

«Oʻgʻitlar» moddasida muayyan bir ekin (ekin guruhi) sarflagan maʼdanli oʻgʻitlar, mikro oʻgʻitlar va boshqaoʻgʻitlar, shuningdek, mahalliy oʻgʻitlar miqdor va summa koʻrsatkichida aks ettiriladi. Bu moddada xarajatlar maʼdanli va organik oʻgʻitlar boʻyicha alohida hisobga olinadi. Oʻgʻitlarni tayyorlash, yuklash, dalaga tashish va yerga solish bilan bogʻliq boʻlganxarajatlar bu xarajat moddasida emas, balki bevosita oʻsimlikchilikning tegishli xarajat moddalarida aks ettiriladi.

«Oʻsimliklarni himoya qilish vositalari» moddasida begona oʻtlarga, ekinlarning zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashishda foydalaniladigan

pestitsidlar, urug‘lik dorilari, defoliant va boshqa kimyoviy va biologik materiallar sarfi hisobga olinadi.

«Ishlar va xizmatlar» moddasida xo‘jalikning o‘zidagi avtomobil transporti va ot-ulov transporti, traktorlar bajargan transport ishlari hisobga olinadi. Yerni o‘g‘itlash bo‘yicha «Agrokimyota’minot» birlashmalari va aviya otryadlar bajargan ishlar ham «Ishlar va xizmatlar» moddasida aks ettiriladi. Yil oxirida bajarilgan ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so‘ng reja tannarx haqiqiy tannarx darajasiga yetkaziladi. O‘simlikchilik tarmog‘i uchun ko‘rsatilgan elektr ta’minoti, suv ta’minoti, issiqlik ta’minoti, gaz ta’minoti xizmatlari ham shu moddada hisobga olinadi. Chet tashkilotlarining transport va boshqa xil xizmatlari shartnoma qiymati bo‘yicha baholanadi.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita o‘simlikchilikda foydalanilayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hisobga olinadi. Bularga asosiy vositalarni saqlash, ulardan foydalanish xarajatlari, ularning amortizatsiya ajratmalari kiradi. Turli moslamalarning eskirishi, ularni tiklash uchun ketgan xarajatlar ham shu modda bo‘yicha hisobga olinadi. O‘simlikchilikda bunday asosiy vositalarga mahsulot yetishtirishda foydalaniladigan traktorlar, qishloq xo‘jalik mashinalari, asbobuskunalar, issiqxonalar, parniklar, omborxona binolari, xo‘jalik ichidagi sug‘orish shahobchalari, ko‘p yillik daraxtlar, yerlarning holatini yaxshilash bo‘yicha qilinadigan noinventar kapital sarflar kiradi. Mevaga kirgan daraxtlarni parvarishlash xarajatlari (amortizatsiya ajratmalardan tashqari) bu xarajatlar moddasiga kirmaydi.

«Umumishlab chiqarish xarajatlari» moddasida o‘simlikchilik tarmog‘ining brigadalarida va boshqa ishlab chiqarish bo‘lishmalarida ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari va xo‘jalikni boshqarish xarajatlarining tegishli qismi hisobga olinadi.

«Sug‘urta to‘lovlari» moddasida qishloq xo‘jalik ekinlari va meva beradigan ko‘p yillik daraxtlar hosilining majburiy sug‘urtasiga oid to‘lovlar hisobga olinadi.

O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan binolar, inshootlar, qishloq xo‘jalik mashinalari, qurilmalar, inventarlar va boshqa asosiy vositalarning sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar ham shu moddada hisobga olinadi. Bunday asosiy vositalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari o‘simlikchilik turiga (o‘simlikchilik guruhlariga) asosiy vositalarni saqlash xarajatlariga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan olib boriladi.

«Boshqa xarajatlar» moddasida yuqoridagi moddalarda hisobga olinmagan, o‘simlikchilikning barcha bevosita xarajatlari aks ettiriladi. Bu xarajatlarga tegishli ishlab chiqarish ob‘yektlarini ishga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflar, idish vaqadoqlash xarajatlari (agar idish qiymati mahsulotning realizatsiyanarxiga kiritilmasdan alohida to‘lansa) texnika tashviqoti va standartlashtirishga oid xarajatlar kiradi.

Qo‘shrobd tumani fermer xo‘jaliklarida g‘alla ishlab chiqarish xarajatlarini salmog‘ini o‘zgarishini o‘rganganimizda quyidagicha bo‘lgan (3.2.1–jadval).

3.2.1–jadval

Qo‘shrobd tumani fermer xo‘jaliklarida g‘alla ishlab chiqarish xarajatlari salmog‘ining o‘zgarishi (2013 y.)*

№	Xarajat moddalari	2013 yil	
		Summasi, mln. so‘m	Salmog‘i, foizda
1.	Mehnat haqi ajratmalari bilan birga	1411,8	39,0
2.	O‘g‘it	101,4	2,8
3.	Urug‘lik	424,1	11,7
4.	Yoqilg‘i moylash materiallari	963	26,6
5.	Ish va xizmatlar	476,1	13,2
6.	Amortizatsiya	159,9	4,4
7.	Umumishlab chiqarish xarajatlari	35,8	1,0
8.	Boshqa xarajatlar	43,9	1,2
	Jami:	3616,0	100,0

***Manba:** Qo‘shrobd tumani fermer xo‘jaliklari statistik hisobot ma‘lumotlari.

3.2.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Qo‘shrobd tumani bo‘yicha 2013 yil lalmikor g‘alla ishlab chiqarish uchun jami 3616,0 mln. so‘mni tashkil etib, bunda

band bo'lgan ishlovchilarga hisoblangan mehnat haqi ajratmalari bilan birga jami xarajatning 39,0 foiz (1411,8 mln. so'm)ni, o'g'it xarajatlari 2,8 foiz (101,4 mln. so'm)ni, urug'lik xarajatlari 11,7 foiz (424,1 mln. so'm)ni, yoqilg'i moylash xarajatlari 26,6 foiz (963 mln. so'm)ni, ish va xizmatlar 13,2 foiz (476,1 mln. so'm)ni, amortizatsiya 4,4 foiz (159,9 mln. so'm)ni, umumishlab chiqarish xarajatlari 1,0 foiz (35,8 mln. so'm)ni, boshqa xarajatlari 1,2 foiz (43,9 mln. so'm)ni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 8 sentyabrda qabul qilingan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan Buxgalteriya hisobining №21 milliy andozasiga asosan fermer xo'jaliklarida g'alla ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi bo'yicha quyidagi buxgalteriya provodkalari beriladi (3.2.2-jadval):

3.3.2-jadval

G'alla ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi bo'yicha schyotlar korrespondensiyasi

№	Operatsiyalarning mazmuni	Summa, mln. so'm	Buxgalteriya provodkasi	
			debet	kredit
1.	G'allachilikda qatnashgan ishchilarga mehnat haqi ajratmalari bilan birga hisoblanganda	1411,8	2010	6710
2.	Sarflangan urug'lik qiymatiga	424,1	2010	1090
3.	Sarflangan o'g'itlar qiymatiga	101,4	2010	1090
4.	Sarflangan yoqilg'i va moylash materillari qiymatiga	963	2010	1030
5.	Tuman MMTP tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar xarajati hisobga	476,1	2010	2310, 6010
6.	G'allachilikda foydalanilgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	159,9	2010	0210- 0290
7.	Tegishli umumiy ishlab chiqarish xarajatlari taqsimlanganda	35,8	2010	2510
8.	G'alla daromadga olindi	3653,0	2810	2010

Sotilgan g'allaning yil oxirida kalkulyatsiya farqiga (agar haqiqiy tannarx reja tannarxidan katta bo'lsa, farq summasiga «qo'shimcha yozuv» usulida, agar haqiqiy tannarx reja tannarxidan kichik bo'lsa, farq summasiga «qizil storno» usulida) quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi.

Debet 9110—«Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schyoti.

Kredit 2010—«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti

G'allachilik tarmog'ida yetishtirilgan don yil davomida reja tannarxida baholab kirim qilinadi. Yil oxirida qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlarni haqiqiy miqdori aniqlangandan so'ng haqiqiy tannarx hisoblanib, reja tannarxi haqiqiy tannarxga tuzatiladi.

Fermer xo'jaliklarida boshlang'ich va yig'ma hisobni to'g'ri tashkil etilishi fermer xo'jaliklarini samarali boshqarishni ta'minlash bilan birga, kartoshka ishlab chiqarish hisobining takomillashishiga olib keladi.

4. LALMIKOR G'ALLACHILIKDA MAHSULOT TANNARXINING TAHLILI

4.1. Tannarx tushunchasi va uni hisoblash usullari

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan mahsulot tannarxini pasaytirish hisoblanadi. Demak, ishlab chiqarish xarajatlari hajmini kamaytirish va mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish, samaradorlikni oshirishning asosiy imkoniyatlaridan biridir. Tannarxning pasayishi foydaning ko'payishi va rentabellikning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish xarajatlari hajmi dinamikasini hamda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxi darajasi dinamikasini uzluksiz ravishda tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir, chunki tahlil tufayli xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari aniqlanadi, natijada ulardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Tannarx deb, mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pul shaklida ifodalanishiga ataladi. Tannarx o'z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Asosiy mahsulot birligining tannarxi jami ishlab chiqarish xarajatlarining tayyor mahsulot miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$Z = \frac{IX}{M}$$

Bunda, Z – 1 sentner mahsulot ishlab chiqarish tannarxi (so'mda);

IX – mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari summasi;

M –mahsulot miqdori (s yoki boshqa o'lchov birligida).

Xarajatlarning shakllanishi bosqichiga qarab tannarxning quyidagi turlari mavjud:

1. Texnologik tannarx.
2. Ishlab chiqarish tannarxi.

Texnologik tannarxga mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek ishlab chiqarishni boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarish tannarxi texnologik tannarxning yig'indisini hamda ishlab chiqarishni butunlay boshqarish bilan bog'liq xarajatlarning yig'indisini ifodalaydi.

Bundan tashqari hisoblash harakteriga qarab quyidagicha tannarx turlari aniqlanadi:

- 1.Reja tannarxi.

- 2.Haqiqiy tannarx.

Reja tannarxi – bu korxona rejalashtirayotgan davrdagi mahsulot jami va birligiga sarflanishi lozim bo'lgan xarajatlar yig'indisi ifodalanadi.

Haqiqiy tannarx esa yil oxirida korxona xo'jalik faoliyatini yakun qilishda yillik hisobotlar asosida hisoblanadi. U olingan yalpi tayyor mahsulot uchun sarflangan haqiqiy xarajatlari asosida aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxini aniqlash tarmoqning xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Haqiqiy tannarx faqat yil oxirida aniqlanadi, yil davomida esa olingan mahsulotlar reja tannarxi bilan hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining barcha asosiy va yondosh mahsulotlari bo'yicha tannarx hisoblanadi. Alohida mahsulot turlari bo'yicha tannarxni hisoblashda dastavval asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlarning turlari bo'yicha miqdori aniqlanadi. Ammo, har bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining hisobini alohida tashkil qilib bo'lmaydi. Shuning uchun barcha turdagi mahsulotlar o'rtasida ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. Xarajatlarni bevosita mahsulot turlariga olib borish.

2. Alohida qishloq xo'jalik ekinlari turlari, mahsulotlari bo'yicha, hayvonlar mahsulotlari bo'yicha, turlari uchun umumiy bo'lgan belgilar bo'yicha xarajatlar olinadigan mahsulot turlari uchun umumiy bo'lgan belgilardan birining miqdori ahamiyatiga mos ravishda taqsimlanadi.

3. Alohida turdagi mahsulotlarni olishga ketgan xarajatlarni ekspertlar yo'li bilan baholash va ularni ma'lum bir ko'rsatkichlarda aks ettirish.

4. Ma'lum bir ekindan olingan mahsulotlar turi bo'yicha xarajatlarni markazlashgan tartibda o'rnatiladigan iqtisodiy jihtadan asoslangan koeffisiyentlarni qo'llash yordamida, sentner – koeffisiyent va boshqa shartli birliklarning miqdoriga mos taqsimlanadi. Ularni aniqlashda mahsulot turlaridan birining birligiga to'g'ri keladigan xarajat bir deb qabul qilinadi, boshqa mahsulotlar birligiga qilingan xarajatlar shu birlikka nisbatan olinib koeffisiyent ko'rinishida ifodalanadi.

5. Xarajatlar mahsulotni sotish bahosi bo'yicha baholangandagi mahsulot qiymatiga mos taqsimlanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash, har bir turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotdan olinayotgan iqtisodiy samarali to'g'ri aniqlashga olib keladi. Shuning uchun har bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni to'g'ri aniqlash har bir xarajat ob'yekti bo'yicha hisobga olib borilgan xarajatlarni kalkulyatsiya ob'yektlari o'rtasida tegishli tartibda taqsimlash zarur. Xarajatlarni qaysi ekin turiga, chorva moli turiga yoki ish, xizmat turiga olib boriladigan bo'lsa, o'sha xarajat ob'yekti deyiladi. O'simlikchilik tarmog'i xarajat ob'yektlari bo'lib qishloq xo'jalik ekinlari, kishloq xo'jalik ishlari, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqa ob'yektlar hisoblanadi.

Haqiqiy tannarxi aniqlanadigan mahsulot, ish, xizmat turiga kalkulyatsiya ob'yekti deyiladi. Kalkulyatsiya ob'yekti qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy va yondosh mahsulotlar hisoblanadi. Qo'shimcha mahsulotlar kalkulyatsiya ob'yekti bo'lmaydi. Mahsulot tannarxini aniqlashda asosiy muammo bo'lib, xarajatlarni kalkulyatsiya ob'yektlari o'rtasida taqsimlash hisoblanadi.

Lalmikor g'allachilikda kalkulyatsiya ob'yekti bo'lib, don hisoblanadi. 1 sentner don tannarxini aniqlash uchun jami xarajatlar olingan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

Lalmikor g'allachilikda tannarxning pasayishi foydaning ko'payishiga olib keladi, foydaning ko'payishi esa iqtisodiyotning mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun tannarxni o'rganish va tahlil qilish asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash iqtisodiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega.

Fermer ho'jaliklarida mahsulot tannarxini hisoblashning quyidagi usullari mavjud:

- ✓ To'g'ridan – to'g'ri xarajatlarni olib borish usuli.
- ✓ Qo'shimcha mahsulot qiymatini ayirib, qolgan xarajatlarni olib borish usuli.
- ✓ Xarajatlarni koeffitsientlar yordamida taqsimlash usuli.
- ✓ Xarajatlarni o'rtacha sotish baholari yordamida taqsimlash usuli.
- ✓ Ekspert usuli.

Oddiy usul - ushbu usul bir ekindan bir turdagi mahsulot olinsa, ya'ni «xarajat ob'yekti» bilan «kalkulyatsiya ob'yekti» bir-biriga mos kelsa qo'llaniladi. Bunda jami xarajat olingan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

Qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilish usuli - ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatlarni «kalkulyatsiya ob'yekti»ga olib borilib mahsulot tannarxi aniqlanadi.

O'rtacha sotish baholari asosida mahsulot tannarxi usuli - ushbu usulda jami xarajatlarni «kalkulyatsiya ob'yekti»lari o'rtasida ularni o'rtacha sotish baholari asosida aniqlangan qiymatlarining salmog'iga mos ravishda taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Koeffitsientlar asosida mahsulot tannarxi usuli - ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatlarni «kalkulyatsiya ob'yekti»lari o'rtasida belgilangan koeffitsientlar asosida shartli mahsulotga aylantirilgan salmog'iga mos ravishda taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Ekspert usuli - bu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajat asosiy va yondosh mahsulotlar o'rtasida oldindan belgilangan foizlar asosida taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

G'allachilik bo'yicha xarajat ob'yektlarini «Asad» fermer xo'jaligi misolida olib qaraydigan bo'lsak, har bir turdagi ekinlar – bug'doy, masxar xarajat ob'yektlari bo'lishlari zarur. «Asad» fermer xo'jaligida asosan lalmi bug'doy ekilib, bug'doy uchun qilingan xarajatlar «g'allachilik» analitik schyotida hisobga olib boriladi.

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2013 yilda 64,6 gektar lalmi yerga bug'doy ekib, jami 1179,9 sentner hosil olgan yoki har gektar lalmi yerdan 17,2 sentnerdan don hosili olingan. Jami xarajatlar 31710,4 ming so'mni tashkil etib, bu xarajat fermer xo'jalikda kalkulyatsiya ob'yekti bo'lgan 1179,9 sentner lalmi g'allaga tegishli bo'lgan. Ushbu ma'lumotlar asosida g'allaning haqiqiy tannarxini hisoblasak, u quyidagicha bo'ladi:

$$1 \text{ s. lalmi g' alla tannarxi} = \frac{31710,4 \text{ ming so'm}}{1179,9 \text{ s}} = 26,875 \text{ min gso'm}$$

Demak, Qo'shrobd tumani “Asad” fermer xo'jaligida 2013 yilda 1 s. lalmi g'allaning tannarxi 26875 so'm bo'lgan.

Biroq fermer xo'jalikda olingan donni tozalagandan so'ng don chiqiti va g'allani yig'ishtirib olgandan so'ng somon daromadga olinmagan. Agar fermer xo'jalikda don chiqiti va somon daromadga olinganda g'allaning tannarxi yanada pasaygan bo'lar edi.

4.2. Lalmikor g'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlarining xarajat moddalari bo'yicha taqqoslama tahlili

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda xarajatlar turlari bo'yicha, ya'ni xarajat moddalari bo'yicha hisobga olib boriladi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilishda har bir xarajat moddasining salmog'i, uning oldingi (bazis) yilidagiga nisbatan o'zgarishi tahlil qilinadi va shu asosda tegishli xulosalar qilinib, takliflar beriladi. Shu bilan birga har bir xarajat turining belgilangan me'yorlarga mosligi, me'yorlardan chetlanishi ham ko'rib chiqilib, tegishli xulosalar qilinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi har bir xarajat moddasida o'z aksini topgan xarajatlar hajmining o'zgarishi ham ekstensiv, ham intensiv omillar hisobiga sodir bo'ladi. Bu omillarni miqdor va sifat omillari deb ham atash mumkin. Shu ikki omil ko'paytmasining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi)ga teng bo'ladi. Demak, omillar ta'sirining yig'indisi ham har bir moddada xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi shart.

G'allachilik tarmog'i qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, g'allachilikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mahsulot tannarxini pasaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunda boshqaruv hisobining asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil etilishi alohida o'rin egallaydi.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda xarajatlar turlari bo'yicha, ya'ni xarajat moddalari bo'yicha hisobga olib boriladi. G'allachilikda xarajatlar quyidagi xarajat moddalari bo'yicha guruhlanadi:

- Mehnat haqi ajratmalari bilan birga.
- O'g'itlar.
- Yoqilg'i va moylash materiallari.
- Urug'lik.
- Ish va xizmatlar.
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi.

- Sug'urta to'lovlari.
- Umumishlab chiqarish xarajatlari.
- Boshqa xarajatlar.

Mahsulot tannarxini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilishda har bir xarajat moddasining salmog'i, uning oldingi (bazis) yilidagiga nisbatan o'zgarishi tahlil qilinadi va shu asosda tegishli xulosalar qilinib, takliflar beriladi. Shu bilan birga har bir xarajat turining belgilangan me'yorlarga mosligi, me'yorlardan chetlanishi ham ko'rib chiqilib, tegishli xulosalar qilinadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan «2009-2012 yillarda mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi»da bir qancha vazifalar belgilanib, ushbu dasturda belgilangan vazifalardan biri har bir korxonada mahsulot tannarxini 20% gacha kamaytirish rejasi ishlab chiqilishi va uni bajarilishini ta'minlanishi lozimligi belgilab berilgan. Fermer xo'jaliklarida ham mahsulot tannarxini pasaytirish dasturi tuzishdan oldin, albatta mahsulot tannarxi tahlil qilinishi lozim.

Tannarx tarkibidagi har bir xarajat moddasida o'z aksini topgan xarajatlar hajmining o'zgarishi ham ekstensiv, ha intensiv omillar hisobiga sodir bo'ladi. Bu omillarni miqdor va sifat omillari deb ham atash mumkin. Shu ikki omil ko'paytmasining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi)ga teng bo'ladi. Demak, omillar ta'sirining yig'indisi ham har bir moddada xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi shart. Masalan, mehnat haqi xarajatlari xarajat moddasini olaylik.

Bu xarajat moddasidagi mehnat haqini ifodalovchi xarajatlar summasi mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi soatlar miqdori (KS) bilan 1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi summasi (1 KH)ning ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$MHX = KS \cdot 1 KH$$

Shundan birinchisi, ya'ni mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi-soatlar –miqdor omili, ikkinchi, hisoblangan mehnat haqi summasi – sifat omili (yoki qiymat omili)dir. Shu omillar ta'sirlarining yig'indisi «Mehnat haqi xarajatlari» moddasidagi xarajatlar hajmining o'zgarishiga teng bo'ladi.

Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklarida g'alla ishlab chiqarish xarajatlarini xarajat moddalari bo'yicha ko'rib chiqamiz (4.2.1-jadval).

4.2.1-jadval

**Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklarida g'alla ishlab chiqarish
xarajatlarining xarajat moddalari bo'yicha
taqqoslama tahlili (mln. so'm)***

№	Xarajat moddalari	Yillar		2013 yilda 2012 yilga nisbatan o'zgarishi
		2012	2013	+/-
1.	Mehnat haqi ajratmalari bilan birga	752,6	1411,8	659,2
2.	O'g'it	25,3	101,4	76,1
3.	Urug'lik	104,8	424,1	319,3
4.	Yoqilg'i moylash materiallari	197,1	963	765,9
5.	Ish va xizmatlar	103,6	476,1	372,5
6.	Amortizatsiya	16,4	159,9	143,5
7.	Umumishlab chiqarish xarajatlari	6,4	35,8	29,4
8.	Boshqa xarajatlar	4,8	43,9	39,1
	Jami:	1211,0	3616,0	2405

***Manba:** Tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2012-2013 yillar hisobot ma'lumotlari.

Ushbu 4.2.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2013 yilda tuman fermer xo'jaliklarida g'alla ishlab chiqarish xarajatlari 3616,0 mln. so'mni tashkil etib, bu 2012 yilga nisbatan 2405 mln. so'mga ortgan. Bunga xarajat moddalari tarkibidagi mehnat haqi ajratmalari bilan 659,2 mln. so'mga, o'g'it xarajatlari 76,1 mln. so'mga, urug'lik xarajatlari 319,3 mln. so'mga, yoqilg'i xarajatlari 765,9 mln. so'mga, ish va xizmatlarning 372,5 mln. so'mga, amortizatsiya xarajatlari 143,5 mln. so'mga, umumishlab chiqarish xarajatlarining 29,4 mln. so'mga va boshqa xarajatlarning 39,1 mln. so'mga oshishi sabab bo'lgan.

Demak, tuman fermer xo'jaliklarida g'alla tannarxini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilib, quyidagilarni xulosa va taklif qilamiz:

– Sarflanayotgan o'g'it, yoqilg'i va urug'liklarni belgilangan me'yorlarda bo'lishini nazorat qilish;

- texnologik jarayonlarni nazorat qilish va vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;
- resurslar tejamkorligiga rioya qilish va mehnat unumdorligini oshirish lozim.

4.3. Fermer xo'jaliklarida 1 s. g'alla tannarxining omilli tahlili

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari hajmini kamaytirish va mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish, samaradorlikni oshirishning asosiy imkoniyatlaridan biridir. Tannarxning pasayishi foydaning ko'payishi va rentabellikning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish xarajatlari hajmi dinamikasini hamda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxi darajasi dinamikasini uzluksiz ravishda tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir, chunki tahlil tufayli xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari aniqlanadi, natijada ulardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mahsulot tannarxini o'rganish asosida uni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash tahlilning maqsadidir. Ushbu maqsadga tahlil quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish orqali erishadi:

1. Mahsulot tannarxi darajasini o'rganish va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini aniqlab baho berish;
2. Mahsulot tannarxi tarkibi, tarkibiy tuzilishining o'zgarishini va har bir xarajat moddasi bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish hamda baho berish;
3. Tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

Fermer xo'jaliklarida g'allachilik tarmog'i mahsuloti bo'lgan don tannarxini tahlil qilishda quyidagi manbalardan foydalaniladi:

1. Fermer xo'jaligining biznes rejalari;
2. G'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ularning tannarxi to'g'risidagi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari;

3. Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasidagi 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti ma'lumotlari;
4. Statistik hisobotlar va boshqa axborot ma'lumotlari.

Mahsulot tannarxi korxona xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Shuning uchun mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda, ob'yektiv hisoblash muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning tahlili natijasida to'g'ri va aniq xulosalar berish lozim bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasi tannarx deyiladi. Tannarxni hisoblashda jami mahsulot tannarxi bir birlik mahsulotning tannarxi yoki 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlari aniqlanadi.

G'allachilikda jami mahsulot tannarxi bu mahsulot tannarxiga kiritiladigan jami xarajatlarning yig'indisidir. Bir birlik mahsulotning tannarxi esa jami mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar olingan mahsulot miqdoriga bo'linib aniqlanadi. Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar deganda, mahsulotning sotish bahosidagi 1 so'mlik qiymatiga necha so'mlik xarajatlar to'g'ri kelishini bildiradi.

G'allachilikda bir birlik mahsulot tannarxini tahlil qilishda solishtirish va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalaniladi.

Hisobot davridagi 1 sentner g'alla tannarxi bazis davridagi 1 sentner g'alla tannarxiga solishtirilib, mutloq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi. Keyin esa, zanjirli bog'lanish usuli orqali omilli tahlil etilib, omillarning har birining ta'siriga baho beriladi va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

1 sentner g'alla tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bu omillar quyidagilardir:

- 1) 1 gektar g'alla ekini maydoni hisobiga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi;
- 2) 1 gektar ekin maydonidan olingan g'alla hosili miqdorining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlaymiz. Tannarx tahlilini Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi ma'lumotlari bo'yicha ko'rib chiqamiz.

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida 2011-2013 yillarda bir gektar g'alla hisobiga qilingan xarajat, hosildorlik va 1 sentner g'alla tannarxi to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagicha bo'lgan (4.3.1-jadval).

4.3.1-jadval

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligining 1 s. g'alla tannarxining omilli tahlili bo'yicha ma'lumotlar*

Ko'rsatkichlar	Yillar	
	2011	2013
1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, so'm	208362	462250
1 gektar ekin maydonidan olingan hosil, s/ga	8,4	17,2
1 sentner g'alla tannarxi, so'm	24805	26875

*Manba: Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2011-2013 yil hisobot ma'lumotlari.

4.3.1-jadval asosida tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash uchun, 1 sentner g'allaning shartli tannarxini aniqlab olamiz. Buning uchun 2013 yildagi 1 gektar g'alla maydoniga qilingan xarajatlarni (IX_1) 2011 yildagi hosildorlikka (H_0) bo'lamiz:

$$Zsh = \frac{IX_1}{H_0} = \frac{462250so'm}{8,4s} = 55030so'm$$

Shartli tannarxni aniqlab olganimizdan so'ng, olingan g'alla bir birligi tannarxini omilli tahlil qilib, har bir omilning ta'sirini aniqlaymiz.

Birinchi navbatda, 1 sentner g'alla tannarxining umumiy o'zgarishini aniqlaymiz. Buning uchun, 2013 yildagi 1 sentner lalmi g'alla tannarxidan 2011 yildagi 1 sentner g'alla tannarxini ayiramiz:

$$Z_1 - Z_0 = \frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{462250}{17,2s} - \frac{208362}{8,4s} = 26875 - 24805 = 2070so'm$$

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida 2013 yilda 1 sentner g'allaning tannarxi 2011 yilga nisbatan 2070 so'mga oshgan. Ushbu o'zgarishga omillar ta'sirini aniqlaganimizda quyidagicha bo'lgan:

Fermer xo'jaligida 1 sentner g'alla tannarxining o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajat summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 sentner g'allaning shartli tannarxidan uning 2011 yildagi tannarxini ayiramiz:

$$\Delta_{IX} = \frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{462250}{8,4s} - \frac{208362}{8,4s} = 55030 - 24805 = 30225so'm$$

Demak, 2013 yilda «Asad» fermer xo'jaligi bo'yicha 1 gektar yerga qilingan xarajatlar oshishi hisobiga, 1 sentner g'allaning tannarxi 30225 so'mga qimmatlashgan.

Fermer xo'jaligida 1 sentner g'alla tannarxining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni g'alla hosildorligi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 sentner g'allaning 2013 yildagi tannarxidan shartli tannarxini ayiramiz:

$$\Delta_H = \frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \frac{462250}{17,2s} - \frac{208362}{8,4s} = 26875 - 55030 = -28155so'm$$

Shunday qilib, fermer xo'jaligida 2013 yilda 1 sentner g'alla tannarxini 28155 so'mga arzonlashisha g'alla hosildorligining oshishi hisobiga oshgan.

Ushbu omillar ta'sirini quyidagi 4.3.2-jadvalda ko'ramiz.

4.3.2-jadval

Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligida 1 sentner g'alla tannarxining omilli tahlili (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2013 yili 1 ga xarajati va 2011 yilidagi hosildorlik bo'yicha	2013 yil	2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi +/-	Sh.j.o'zgarishi	
						1 gektar xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1.	1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, so'm	208362	462250	462250	253888	X	X
2.	1 ga ekin maydonidan olingan hosil, s/ga	8,4	8,4	17,2	8,8	X	X
3.	1 s. g'alla tannarxi, so'm	24805	55030	26875	2070	+30225	-28155

*Manba: Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi hisobot ma'lumotlari.

4.3.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda 1 sentner g'alla tannarxi 2011 yilga nisbatan 2070 so'mga qimmatlashgan. Bu o'zgarish 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatning 253888 so'mga oshishi hisobiga 30255 so'mga ko'paygan bo'lsa, 1 ga ekin maydonidan olingan hosilning 8,8 sentnerga oshishi hisobiga g'alla tannarxi 28155 so'mga arzonlashgan.

Tannarxni omilli tahlil qilish natijasida fermer xo'jaligida g'alla tannarxini pasaytirish uchun g'alla ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, tannarxni oshishiga ko'proq 1 gektar yerga qilingan xarajatlarni oshishi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga g'allachilikda hosildorlikni ham oshirish lozim.

5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha qo'yilgan asosiy maqsad - bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayot faoliyat xavfsizligi - bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati, ya'ni mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportdagi faoliyatini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida hayot faoliyati xavfsizligi o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab oladi. Hayot faoliyati xavfsizligi tamoyil va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan vositadir. Hayot faoliyati xavfsizligi - bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 8 fevraldagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi buyrug'iga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi. Mazkur Qoidalar o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tashkilotlarga taalluqlidir.

Ta'lim muassasalari talabalarini mehnatidan foydalanish jarayonida mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat maxsus vakolat berilgan davlat organlari, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan saylangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olishda band bo'lgan ta'lim muassasalari talabalariga ish turlari bo'yicha belgilangan tartibda

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berilishi kerak. Bunda ular oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan ishlar:

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxatiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar zararli va noqulay mehnat sharoiti mavjud ishlarga qabul qilinmasligi lozim.

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risidagi nizomga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

- Ayollar mehnatidan foydalanish to'liq yoki qisman taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxatiga muvofiq ayollar zararli va noqulay mehnat sharoitiga ega bo'lgan ishlarga jalb qilinmaydi.

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-bandiga muvofiq ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun — ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat va dam olishga quyidagi talablar qo'yilgan: Tashkilotlarda talabalarining ish vaqti, dam olish vaqti, shuningdek qisqartirilgan ish vaqti qonun hujjatlari talablari asosida tashkilotlarning ichki mehnat qoidalari asosida belgilanadi. Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi

lozim. Talabalarni ish vaqtidan tashqari hamda tungi ishlarga jalb qilish qat'iyan taqiqlanadi.

Talabalarni dala ishlariga olib borish hamda olib kelishda xavfsizlik talablari: Har bir transport vositasiga joylashtiriladigan o'quvchi va talabalar soni transport vositasining texnik holatidan kelib chiqqan holda rahbariyat tomonidan belgilanishi hamda har bir transport vositasidagi talabalar ro'yxatga olinishi lozim. Har bir transport vositasidagi talabalarga alohida rahbar tayinlanadi. Rahbar ularni nazorat qilib borishi lozim. Bunda talabalarni tashish uchun mo'ljallangan transport vositalaridan, ularning yuklarini olib borishda esa, yuk tashishga mo'ljallangan transport vositasidan foydalanish shart. Transport vositasida talabalarning transport vositasi oynasi hamda boshqa joylaridan qo'l, bosh va boshqa a'zolarini chiqarishlari taqiqlanadi.

Talabalarni vaqtincha yashab turish joylaridan dalaga olib chiqish hamda olib kelishga qo'yiladigan xavfsizlik talablari: Talabalarni dalaga olib chiqish va olib kelishdan oldin rahbar yo'qlama qilishi va ularga bajariladigan ish turlari bo'yicha to'liq tushuntirish, yo'l-yo'riqlar berishi lozim. Talabalar orasida kasal yoki vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlar tibbiyot xodimi nazoratidan o'tadi va ularning sog'liklari to'la tiklanguncha dam olish joylarida qoldiriladi. Dalaga chiqadigan talabalar ishning turiga hamda iqlim sharoitiga mos ust-bosh kiygan bo'lishi lozim. Ish olib boriladigan dala yashash joyidan 3 km masofadan uzoqda joylashgan bo'lsa, maxsus transport vositasi ajratilishi kerak. Ish joylariga olib borish va qaytarib kelish faqat kunning yorug' paytida amalga oshirilib, talabalar piyoda harakatlanganlarida yo'ldagi transport vositasining qatnoviga xalaqit bermaslik maqsadida saf bo'lib yurishlari lozim. Saf bo'lib harakatlanishda harakat xavfsizligini ta'minlash va boshqarish maqsadida safning boshida hamda oxirida qizil bayroqchali boshqaruvchilar qo'yilishi lozim. Ish joyiga yetib kelgandan so'ng talabalar ro'yxat bo'yicha ish joylariga taqsimlanishi lozim.

Dala ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari: Talabalar dala ishlarini bajarishdan oldin belgilagan tartibda mavsumiy kiyim-bosh, soz ish qurollari bilan

ta'minlanishlari lozim. Dala ishlariga jalb qilingan talabalar hududning rahbari ruxsati bilan uning ko'rsatmasiga asosan ish boshlashlari lozim. Talabalar dala ishlarini bajarayotgan vaqtida bir-birlaridan kamida 2 m masofada joylashishlari lozim. Talabalar kunning yorug' vaqtida ishlashlari lozim.

Qishloq xo'jaligida mehnat sharoitlarining yaxshilanishi ijtimoiy natijalarga, ya'ni mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilash, o'z ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklari, shu jumladan, «Asad» fermer xo'jaligi misolida lalmikor g'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxining hozirgi holatini quyidagi **xulosalarga** keldik:

1. Qo'shrobd tuman fermer xo'jaliklarining 2013 yilda jami ekin maydoni 5578 gektarni tashkil etib, ekin maydonlari tarkibida g'alla maydoni 83,4 foizni, sabzavot ekinlari maydoni 2,9 foizni, kartoshka maydoni 0,8 foizni, poliz maydoni 1,0 foizni, meva maydoni 1,4 foizni, hosilli uzum maydoni 10,6 foizni tashkil etgan.

Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklarining dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda 2013 yilda 8595 tonna g'alla, 2460 tonna sabzavot, 860 tonna kartoshka, 360 tonna poliz, 1131 tonna meva va 4526 tonna uzum yalpi mahsuloti olingin bo'lib, 2011 yilga nisbatan faqatgina g'alla (2011 yilda g'alla kirim qilinmagan) va mevadan yuqori hosil olishga erishilgan. Shuning uchun tuman fermer xo'jaliklarida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

2. Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi tumanning lalmikor g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan biridir. «Asad» fermer xo'jaligi 2003 yilda tashkil etilgan bo'lib, 2013 yilda fermer xo'jalik yer maydonining asosiy qismini, ya'ni 82 gektarini yoki 92,1 foizni haydaladigan lalmi ekin maydoni tashkil etadi. Xo'jalikning ekin maydoni 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 24 gektarga oshgan.

Fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik ekinlaridan lalmi bug'doy va masxar yetishtirilib, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan bug'doydan 757,4 sentner, masxardan 69,4 sentner ko'p hosil olingan. Bu ko'payish bug'doy ekin maydonining 18,3 gektarga va masxar ekin maydonining 5,7 sentnerga hamda 2013 yilda bahorning seryog'in kelib, tuproqda namlik yetarli bo'lganligi natijasida fermer xo'jalikda mavjud ekin maydonlaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan ekinlar hosildorligining oshishi hisobiga bo'lgan. 2013 yilda g'alla

hosildorligi 2011 yilga nisbatan 8,8 sentnerga ko'paygan. Lalmi g'alla hosildorligi 2013 yilda 17,2 sentnerni tashkil etgan bo'lib, fermer xo'jalikda 2011 yilda g'alla yetishtirish rejasi bajarilsada, uning hosildorligi 2013 yilga nisbatan kamaygan. 2011 yilda ekilgan «Qizil shalola-210» lalmi bug'doy naviga nisbatan 2013 yilda ekilgan yuqori hosilli «Surxak» lalmi bug'doy navi hissasining oshishi o'rtacha g'alla hosildorligini oshirgan.

3. Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yil lalmikor g'alla ishlab chiqarish uchun jami 3616,0 mln. so'mni tashkil etib, bunda band bo'lgan ishlovchilarga hisoblangan mehnat haqi ajratmalari bilan birga jami xarajatning 39,0 foiz (1411,8 mln. so'm)ni, o'g'it xarajatlari 2,8 foiz (101,4 mln. so'm)ni, urug'lik xarajatlari 11,7 foiz (424,1 mln. so'm)ni, yoqilg'i moylash xarajatlari 26,6 foiz (963 mln. so'm)ni, ish va xizmatlar 13,2 foiz (476,1 mln. so'm)ni, amortizatsiya 4,4 foiz (159,9 mln. so'm)ni, umumishlab chiqarish xarajatlari 1,0 foiz (35,8 mln. so'm)ni, boshqa xarajatlari 1,2 foiz (43,9 mln. so'm)ni tashkil etgan.

4. Qo'shrobd tumani «Asad» fermer xo'jaligi 2013 yilda 64,6 gektar lalmi yerga bug'doy ekib, jami 1179,9 sentner hosil olgan yoki har gektar lalmi yerdan 17,2 sentnerdan don hosili olingan. Jami xarajatlari 31710,4 ming so'mni tashkil etib, bu xarajat fermer xo'jalikda kalkulyatsiya ob'yekti bo'lgan 1179,9 sentner lalmi g'allaga tegishli bo'lgan. «Asad» fermer xo'jaligida 2013 yilda 1 s. g'allaning tannarxi 26875 so'm bo'lgan.

5. Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklarida g'alla ishlab chiqarish xarajatlarini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilganimizda, 2013 yilda tuman fermer xo'jaliklarida g'alla ishlab chiqarish xarajatlari 3616,0 mln. so'mni tashkil etib, bu 2012 yilga nisbatan 2405 mln. so'mga ortgan. Bunga xarajat moddalari tarkibidagi mehnat haqi ajratmalari bilan 659,2 mln. so'mga, o'g'it xarajatlari 76,1 mln. so'mga, urug'lik xarajatlari 319,3 mln. so'mga, yoqilg'i xarajatlari 765,9 mln. so'mga, ish va xizmatlarning 372,5 mln. so'mga, amortizatsiya xarajatlari 143,5 mln. so'mga, umumishlab chiqarish xarajatlarining 29,4 mln. so'mga va boshqa xarajatlarning 39,1 mln. so'mga oshishi sabab bo'lgan. 2013 yilda 1 sentner g'alla

tannarxi 2011 yilga nisbatan 2070 so'mga qimmatlashgan. Bu o'zgarish 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatning 253888 so'mga oshishi hisobiga 30255 so'mga ko'paygan bo'lsa, 1 ga ekin maydonidan olingan hosilning 8,8 sentnerga oshishi hisobiga g'alla tannarxi 28155 so'mga arzonlashgan.

Olingan xulosalar asosida quyidagi **takliflarni** berdik:

- g'allachilik ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibiga faqat ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan xarajatlarni olib borish;
- tuman fermer xo'jaliklarida g'allachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi hisobini avtomatlashtirish;
- fermer xo'jaliklarida g'alla somoni №21-son BHMS talablaridan kelib chiqib, tegishli tartibda baholab, jami g'allachilikka qilingan xarajatlardan somonning normativ qiymati chegirib tashlab, g'alla tannarxini hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu takliflarimizni tuman fermer xo'jaliklariga joriy etilishi lalmikor g'allachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining takomillashishiga va mahsulot tannarxining pasayishiga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrirda). 26.08.2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 22.10.2012. PF-4478.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. 54-son.
5. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma. 09.09.2002.
6. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining buyrug'i. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida. 08.02.2011. №7-B.
7. Prezident Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi // Xalq so'zi, 18.01.2014. -№13 (5913).
8. Prezident Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va

modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish // Xalq so'zi, 19.01.2013. - №13 (5687).

9. Prezident Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 20.01.2012. №14 (5404).

10. Abdukarimov B.A., Bektemirov A.B., Pardayev M.Q. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 368 b.

11. Alikulov A., Qurbonov I., Ibragimov U., Eshmuradov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. – Samarqand: N-Doba, 2009. – 248 b.

12. Alikulov A.I., Eshmuradov U.T. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxi va uning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati /Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, I-qism. – Samarqand: N-Doba, 2013. - B. 137-140.

13. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jalik yerlaridan to'liq va samarali foydalanish istiqbollari // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№7. –B. 35-36.

14. Abduvohidov F., Sotivoldiyeva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari // Bozor, pul va kredit. - Toshkent, 2011. - №4. – B. 53-55.

15. Do'smurotov R.D., Mengliqulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. - 392 b.

16. Dehqonchilik madaniyati – fermerlar majburiyati (fermerlar uchun tavsiyalar) // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№6. –B. 10-13.

17. Ergashev R.X., Xamrayev S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – 332 b.

18. Ergashev R.X. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. – T.: EXTREMUM PRESS, 2010. – 416 b.

19. Gadoyev E.F. va boshq. Buxgalterlar uchun amaliy qo'llanma: II-jildlik. – T.: NORMA, 2010. – 424 b.
20. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005. – 435 b.
21. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. – T.: Sharq, 2004. – 591 b.
22. Ortiqov Z. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lida // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№9. –B. 2.
23. Pardayev M.Q., Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Cho'lpon, 2012. – 440 b.
24. Qudratov T., Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. – T.: Voris, 2012. – 256 b.
25. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand: N-Doba, 2010. – 191 b.
26. Qosimov M. Fermer xo'jaliklarining texnologik barqarorligini ta'minlash // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№12. –B. 17.
27. Siddiqov R. Don hosili mo'l bo'ladi // Agro Biznes inform. -Toshkent, 2013. -№12. –B. 34-35.
28. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va menejmenti. – T.: Cho'lpon, 2012. – 320 b.
29. Tursunov S. Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi.– T.: Tafakkur-bo'stoni, 2013. – 288 b.
30. Tursunov U., Yuldashev B. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2014. -№4. –B. 35.
31. Tursunov U. va boshqalar. Ishlab chiqarishni boshqarishda xarajatlarning roli // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2012. - №3. – B. 40-41.
32. Tillayev R. Tuproq unumdorligini oshirish – ustuvor vazifa // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2013. -№7. –B. 20-21.

33. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari.–T.: Adib, 2011. - 487 b.
34. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 276 b.
35. Xasanov B. Mustaqillik yillarida buxgalteriya hisobining rivojlanishi // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. -Toshkent, 2013. -№3-4. –B. 41-44.
36. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi.– T.: Cho'lpon, 2013. – 312 b.
37. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi matbuot xizmati. Islohotlar taraqqiyot va rivojlanishga xizmat qilmoqda // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - Toshkent, 2014. -№2. –B. 1-2.
38. G'aniyev I.M., Saydullayeva F.J. O'zbekistonda g'alla bozorini rivojlantirish xususiyatlari /Yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, II qism. – Samarqand: Optima print, 2014. - B. 81-82.
39. Samarqand viloyat Statistikasi boshqarmasi hisobot ma'lumotlari. 2011-2013 .
40. Samarqand viloyat Qo'shrobd tumani Pasporti, tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi va statistika bo'limi hisobot ma'lumotlari. 2011- 2013 yillar.
41. Qo'shrobd tumani “Asad” fermer xo'jaligi hisobot ma'lumotlari. 2011-2013 yillar.
42. Internet saytlari:
- 42.1. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi portali
- 42.2. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
- 42.3. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali
- 42.4. www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi portali.
- 42.5. www.samarkand.uz – Samarqand viloyati rasmiy sayti.